

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**



**Tabiiy fanlar fakulteti
Matnazarova Guliston Uktamovna
5140600- Geografiya ta'lim yo'nalishi bo'yicha
bakalavr darajasini olish uchun**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: Geografiya darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalarni
qo'llash (6-sinf materiklar va okeanlar tabiiy geografiya kursi misolida)**

Ilmiy rahbar:

dots. Matsaidova S.X.

Urganch - 2018-yil

MUNDARIJA:

KIRISH.....	3
I-BOB. GEOGRAFIYA FANINI O'QITISHDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH QO'LLASHNING AHAMIYATI	6
1.1. Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi kursining ta'lim tarbiyaviy ahamiyati, maqsadi, mazmuni tuzilishi	6
1.2. Geografiya talimida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llashning ahamiyati	11
1.3. Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi darsligidagi o'zgarishlar, geografiya ta'limidagi yangiliklar	21
II-BOB. MATERIKLAR VA OKEANLAR TABIIY GEOGRAFIYA KURSINI O'QITISHDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH USULLARI	28
2.1. Materiklarning geografik o'rni o'rganish tarixi, foydali qazilmalari, relefini o'rganishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanilgan dars ishlanmalari yaratish	28
2.2. Materiklarning iqlimi, ichki suvlari, tabiat zonalarini o'rganishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullari....	38
2.3. Okeanlarni o'rganishda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash	51
II-BOB. 6-SINF MATERIKLAR VA OKEANLAR TABIIY GEOGRAFIYA KURSIDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH BO'YICHA O'TKAZILGAN TAJIRIBA-SINOV ISHLARI VA NATIJALARI	55
3.1. 6-sinf materiklar va okeanlar tabiiy geografiya kursida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash bo'yicha tajriba- sinov ishlari.....	55
3.2 6-sinf materiklar va okeanlar tabiiy geografiya kursida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash asosida o'tkazilgan tajriba-sinov natijalari.....	57
XULOSA.....	62
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	63

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi: O'zbekiston Respublikasida demokratik va huquqiy jamiyat barpo etilayotgan mavjud sharoitda yosh avlodning mustaqil va erkin fikrlay olishi ro'y berayotgan voqea-hodisalarga shaxsiy munosabtni bildirishga imkon beradi. Ijtimoiy borliqda kechayotgan o'zgarishlarga nisbatan shaxsiy nuqtai nazarning shakllanishi shaxs faolligini ko'rsatuvchi muhim jihatlardan biridir. Qolaversa, mustaqil fikr egasi bo'lgan shaxs o'z imkoniyatlari, qobiliyatini erkin namoyon eta oladi. Muvaffaqiyatli ravishda olib borilayotgan ta'limiy islohotlarning ham asosiy maqsadi erkin, mustaqil fikriga ega barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalab voyaga etkazishdan iboratdir.

Bu xususida O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov quyidagilarni e'tirof etadi: «Amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi har bir fuqaroning shaxs sifatida shakllanishi uchun, o'z qobiliyatini, o'z talantini ishga solib hayotini yanada yaxshilashi, ma'nan boyitishi uchun barcha imkoniyatni yaratib berishdan iboratdir»¹

XXI asr O'zbekistonda madaniyat, iqtisodiyot, fan va texnika, ijtimoiy-siyosiy innovasiyalar asri sifatida boshlandi va ana shunday sharoitda barkamol shaxs, yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy zaruratga aylandi. Bu zarurat "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da belgilangan "ta'lim oluvchilarning ma'naviy va axloqiy fazilatlarini rivojlantirish" masalasiga e'tibor qaratishni talab etdi.[5]

O'zbekistonning kelajagi, uning istiqboli, birinchi navbatda yoshlar tarbiyasiga, ularni sog'lom qilib o'stirishga, milliy g'oya, milliy mafkura va o'z vataniga sadoqat ruhida tarbiyalashga bog'liq bo'lib, bu murakkab jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish mustaqil mamlakatning eng dolzarb vazifalaridan biridir. Shuning uchun ham, birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich

¹Karimov I.A. Бунёдкорлик йўлидан. – Тошкент, Ўзбекистон, 1996. – 116-бет.

Karimovning “Mamlakatimizning istiqboli yosh avlodlarimiz qanday tarbiya topishiga, qanday ma’naviy fazilatlar egasi bo’lib voyaga yetishiga, farzandlarimizning hayotga nechog’lik faol munosabati bo’lishiga, qanday oliy maqsadlarga xizmat qilishiga bog’liq ekanligini hamisha yodda tutishimiz kerak” deb ta’kidlagani bejiz emas. Shu boisdan ham bugungi kunda yoshlarning ta’lim-tarbiyasi mustaqil O’zbekistonning davlat siyosatida ustivor ahamiyat kasb etmoqda.

“Bolaning inson sifatida shakllanishi, avvalo, oilada va bolalar bog’chasida sharoit va tarbiya ishlariga bog’liq. Olimlar va pedagoglar bola tarbiyasi qancha erta boshlansa, shuncha yaxshi, deb hosiblaydilar. Shuning uchun farzandlarimiz kamoloti yo’lida biz mablag’ va imkoniyatlarimizni ayamashimiz kerak”².

Bunday sharoitda, yuqori malakali pedagoglarga bo’lgan talablar ortib borib, barkamol avlodni asrlar davomida shakllanib kelgan umuminsoniy va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash layoqatiga ega, fanning fundamental asoslarini, pedagogika va psixologiya metodlarini mukammal egallagan, kasbiy tayyorgarligi yuksak darajada bo’lgan hamda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini amaliyotda qo’llash ko’nikma va malakasiga ega ijodkor pedagoglarni tayyorlash talab etiladi.

Hozirgi vaqtda ta’lim-tarbiya jarayonida pedagogik innovatsiyalarni keng ko’lamda qo’llash jahon taraqqiyotining global tendentsiyasi hisoblanadi. Pedagogik innovatsiyalar ko’laminin ortib borishi, mamlakatda modernizatsiya jarayoni tez sur’atlar bilan rivojlanayotgan ayni davrda ta’lim sohasiga yangiliklarni tizimli ravishda kiritishga alohida e’tibor qaratilmoda. Ammo, ko’plab pedagogik innovatsiyalarning yaratilayotganiga qaramay, ta’lim jarayonlariga o’kitishning yangi mazmun, shakl, metod va vositalarini tadbik etish bo’yicha pedagogik taqiqotlarni joriy etish darajasini hozircha etarli deb bo’lmaydi.[6]

²Мирзиёев.Ш.М.“Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга курашимиз” Тошкент “Ўзбекистон” 2017. Б 263.

Ta'lim innovastiyalari-ta'lim sohasi yoki o'quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida echish maqsadida qo'llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar.

Ta'lim innovastiyalari "innovatsion ta'lim" deb ham nomlanadi. "Innovatsion ta'lim" tushunchasi birinchi bor 1979 yilda "Rim klubi"da qo'llanilgan.

Bitiruv malakaviy ishida aynan Geografiya talimida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash (6-sinf materiklar va okeanlar tabiiy geografiya kursi misolida) mavzusini tanlashdan maqsad bugungi kunda maktab geografiya kurslari bo'yicha alohida pedagogik texnologiyalar asosida dars ishlanmalari ishlab chiqilmagan va amaliyotda sinalmaganligidir. Bu xolatlar o'rta ta'lim maktablarida qo'llaniladigan ta'lim va tarbiya jarayonlarini tashkiliy-huquqiy xujjatlarini va ular asosida ishlab chiqiladigan lokal hujjatlarni har tomonlama nazariy va amaliy jihatdan o'rganish va tahlil etishni imkonini beradi. Mavzu bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir.

Bitiruv malakaviy ishi maqsadi:geografiya ta'limi jarayonida "Geografiya talimida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash (6-sinf materiklar va okeanlar tabiiy geografiya kursi misolida)" mavzusi bo'yicha ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishi obekti: geografiya ta'limi "6-sinf geografiya darslarida innovatsion va texnologiyalarda foydalanish usullari" jarayoni.

Bitiruv malakaviy ishi predmeti: geografiya ta'limi jarayonida "Geografiya ta'limida innovatsion va pedagogik texnologiyalarni qo'llash (6-sinf materiklar va okeanlar tabiiy geografiya kursi misolida)" mavzusining mazmuni, shakli, metod va vositalari.

Bitiruv malakaviy ishi metodlari: muammoga oid adabiyotlarni o'rganish, ilmiy-amaliy tahlil qilish, pedagogik kuzatish, pedagogik tajriba, matematik statistika.

Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi fanida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullari mavzusini o'qitishning nazariy va amaliy

masalalarini tadqiq etish, mavzu yuzasidan o'qitishni takomillashtirish bo'yicha xulosalar va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Bitiruv loyiha ishi maqsadidan kelib chiqib quyidagi vazifalar belgilab olindi:

Birinchidan, o'rta ta'lim maktablarida o'qitilayotgan 6-sinf Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi kursida innovatsion texnologiyalardan foydalanish usullarini nazariy va amaliy tahlil qilish;

Ikkinchidan, 6-sinf geografiya darslarida innovatsion texnologiyalarda foydalanish usullarini ilg'or tajribalar orqali yoritish;

Uchinchidan, "6-sinf Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi" fani o'quv dasturi mazmun mohiyatini ochib berish;

To'rtinchidan, 6-sinf geografiya darslarida innovatsion texnologiyalarda foydalanilgan holda dars ishlanmalari tayyorlash;

Beshinchidan, umumiy ta'lim muassasalarida "6-sinf Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi" fanini o'qitishni yanada takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Mavzuning tuzilishi va xajmi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, uchta bob, 8 qism, xulosa va foydalanilgan adabiyotlardan iborat holda yoritib berilgan. Bitiruv loyiha ishida 29adabiyotdan foydalanilgan. Ishning hajmi 65 betni tashkil etadi.

I-BOB. GEOGRAFIYA FANINI O'QITISHDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH QO'LLASHNING AHAMIYATI

1.1.Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi kursining ta'lim tarbiyaviy ahamiyati, maqsadi, mazmuni tuzilishi

Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi maktab geografiyasi kurslari ichida yerimiz tabiiy geografiyasini o'rganishni boshlab beruvchi birinchi regional predmet hisoblanadi. Bu kurs o'quvchilarda materiklar va ularning yirik qismlari haqida tasavvur va tushunchalar tizimini shakllantirishga xizmat qiladi.

5-sinfda egallangan qator yakka va umumiy tabiiy geografik tushunchalarni mustahkamlashadi va ularga tayangan xolda qator yangi tushunchalar tizimini hosil qilishda bu kursning ahamiyati katta. O'quvchilarning 5-sinfda iqlim, relyef haqida olgan umumiy tushunchalar kurs misolida yanada oydinlashadi va yangi tushunchalar bilan boyitiladi. Materiklarni o'rganish jarayonida qator yangi tushunchalarni o'rganadilar. Masalan Afrika iqlimi mavzusida passatlar, izotermalar, iqlim hosil qiluvchi omillar, iqlim mintaqalari, iqlimning vaqt o'tishi bilan o'zgarishi kabi qator yangi tushunchalar tizimi bilan tanishadilar va ularni o'rganadilar. O'quvchilar bu kurs misolida tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi murakkab aloqadorlik masalalarni chuqurroq o'rganishga kirishadilar. Tabiatni rivojlanish qonuniyatlarini, tabiiy muhitning bevosita ichki va tashqi kuchlar ta'sirida o'zgarishini materiklar misolida bilib oladilar va o'rganadilar. Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi inson xo'jalik faoliyatining qita'lari tabiatiga ta'sirini ham tadqiq qiladi. Kursda o'quvchilarning mavjud kartografik tasavvur va tushunchalari yanada chuqurlashadi. Bu bilimlarning aksariyati ko'nikma va malakalar darajasiga yetadi. O'quvchilar materiklar va okeanlar kartalarini o'qiy olish ko'nikmalariga ega bo'ladilar. Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasida o'quvchilar quyidagi bilimlar tizimini egallaydilar.

1. Har bir materikning tabiiy geografiyasi haqidagi tushunchalarni egallaydilar. Bular: geografik o'rin, materiklarning kattaligi, qirg'oq tuzulishi, relyef, iqlim tabiiy resurslari, 2. Har bir materikning faqat o'ziga xos xususiyatlarini, uning boshqa materiklardan farqini. Tabiiy elementlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni, 3. Tabiat zonalari, tabiiy geografik rayonlarini va ularga xos bo'lgan xususiyatlarni. 4. Materiklarni kashf qilgan va tadqiq etgan buyuk sayyoh va olimlar faoliyatini, 5. Sayyoramizdagi tabiiy geografik obektlarni (dengizlar, qo'ltiqlar, bo'g'ozlar, tog'lar, yassi tog'liklar, tekisliklar va ularning xilma – xil turlarini) va yarimorollarni, daryolar va ko'llarni) bilishlari zarur, 6. Dasturda berilgan geografik namunklatura nomlarini faqat har bir materik uchun xos bo'lgan belgilarni esda saqlashi va ularni kartada topa olishi kerak, 7. Yer sharidagi yirik davlatlarni, xalqlarni bilishi, dunyo siyosiy xaritasi haqida tasavvurga ega bo'lishi kerak. Materiklar va tabiiy geografik rayonlarda istiqomat qiluvchi xalqlarning xo'jalik faoliyati haqida bilim va tasavvurlarga ega bo'lishlari zarur, 8. O'quvchilar davlatlarni va ularning poytaxtlarni kartadan topa olishlari kerak. Hozirgi kundagi siyosiy kartadagi eng muhim o'zgarishlarni bilishlari kerak, 9. Materiklarning tabiiy geografik xususiyatlari bilan bog'liq tushunchalarni (relyef tiplarini, tog'lar va tekisliklarning kelib chiqishi materiklar relyefini vaqt o'tishi bilan o'zgarishini, yer iqlimlarini, yerdagi iqlim hosil qiluvchi omillarni, iqlim bilan relyefning aloqadorligini, tabiiy va vertikal zonallikni, iqlim va geografik mintaqalarni, inson bilan tabiatning o'zaro aloqadorligi bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarni tabiatning inson xo'jalik faoliyati ta'sirida o'zgarishini) kerak, 10. Materiklar va okeanlarga oid bo'lgan kartografik bilim, ko'nikma va masalalarni egallaydilar. Kartalarni mazmuni va tematikasiga ko'ra ajrata olish. Xilma – xil kartalardan foydalana olishlik kartalardan bilim manbai sifatida foydalana olishni. Geografik obektlarga (maxsus rejalar bo'yicha) karta asosida ta'rif berishi. Aloxida davlatlarni karta asosida tariflay olishi kerak.



1.1-rasm.Materiklarni o'rganish rejasi.

Bu kursni o'rganish quyudagi maqsadlarni o'z ichiga oladi:


- O'quvchilarda mavjud tabiiy-geografik bilimlarga tayangan holda geografik qobiqning yagona TTK ekanligini, umumiy geografik qonuniyatlarini, sayyoramiz aholisi va ularning xo'jalik faoliyati, inson bilan tabiat o'rtasidagi muhim aloqadorlik jarayonlarini materiklardagi yirik davlatlarni. Tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi muammolarni o'quvchilarda tabiatga, hodisalarga nisbatan to'g'ri ilmiy dunyoqarash shakllantirish.

- Materiklarni kashf etgan tadqiq qilgan sayyoh va olimlar faoliyatini, o'z vataniga muhabbat, dunyodagi barcha xalq va millatlar bilan hamdo'stlik, tabiatga nisbatan mehr-muhabbat, nafosat tarbiyalarini singdirish. Kurslarni o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan tahlil, qiyoslash umumlashtirish kabi fikrlash usullarini o'quvchilarda shakllantirish Kurs mazmunini o'zlashtirishda qo'l keladigan zamonaviy metodlarni qo'llash va h.k[6].

Materiklar geografiyasi kursi mazmunini tuzilishi. Maktabda o'qitiladigan materiklar va okeanlar geografiyasining mazmunini umumiy tabiiy geografiya, regional tabiiy geografiya va landshaftshunoslikni ayrim masalalari tashkil etadi. Kurs mazmunini xilma-xil bilimlar tashkil qiladi. Bular : umumiy yer bilimiga oid bo'lgan tushuncha va atamalar, TTK komponentlari, tabiiy jarayonlar va hodislar, yer shari hududlarining tabiiy geografik ta'rifi, aholi va uning xo'jalik faoliyati, siyosiy karta haqidagi ma'lumotlardan iborat. Yer bilimiga oid aksariyat bilimlar materiklar va okeanlar kursida maktab geografiyasi kurslari mazmunida ishtirok qiladi. Bu bilimlarning aksariyat qismi materiklar geografiyasida o'rganiladi. Bular iqlim, relyef, tabiat kompleksi, geografik qobiq, tabiiy resurslar va hokazolardan iborat.

5-sinfda aksariyat tushunchalar mazmunan 6-sinfda yanada chuqurlashadi va takomillashadi. Bular shamol, atmosfera yog'inlari, atmosfera bosimi, havo massalari, iqlim va boshqa tushunchalardir. Bu tushunchalar negizida iqlim mintaqalari, izotermalar, ekvatorial, subekvatorial, tropik iqlim mintaqalari kabi tushunchalar shakllanadi va h.k.

Materiklar va okeanlar kursida umumgeografik qonuniyatlar bilan bog'liq bo'lgan va alohida tabiat komponentlar hususiyatlarini o'zida aks ettiradigan bilimlar ham mavjud. Bularga: relyef shakllari joylashishi va rivojlanishi, foydali qazilmalar, yog'inlar va harorat hamda geografik qobiqqa xos bo'lgan va umum sayyoraviy ahamiyatga ega bo'lgan umumgeografik qonuniyatlar kiradi. Maktab geografiyasida bu qonuniyatlarning 4 tasi ishtirok qiladi.[7]



1.2-rasm. Umumgeografik qonuniyatlar.

Kurs mazmunining aksariyat qismini yakka tushunchalar tashkil qiladi. Masalan : Murreydaryosi, Eyr, Katta suvayirg'ichtizmasi, materiklarning tabiiy xususiyatlari hamda ulardagi regional tafavutlarni ajratish uchun katta hajmdagi geografik obektlarni, hodisalarni o'zlashtirish zarur bo'ladi. Ammo nazariy bilimlar bilan yakka tushunchalar miqdoriy jihatdan bir-biridan ko'payib ketmasligi kerak. Yani yakka tushunchalar miqdori nazariy bilimlarni o'zlashtirish uchun yetarli darajada berilsa bas xolos. Yakka tushunchalar odatda u yoki bu hududlarning, obekt va hodisalarning hususiyatlarni ajratishda ishlatiladi. Yakka tushunchalar umumiy tushunchalarni yanada oydinlashtirish va tarbiyaviy vazifalarni hal qilish uchun ham zarur. Shu tufayli ham kurs tarkibida yer sharidagi eng yirik daryolar haqidagi ma'lumotlar kiritilgan. Ularni tariflashda rejim, to'yinish, yirik relyef shakllari kabi umumiy tushunchalar bilan to'ldiriladi. Bu yerda yakka va umumiy tushunchalar uyg'unlashgan holda namoyon bo'ladilar. Materiklar geografiyasini o'rganishda geografik kashfiyotlar, tadqiqot metodlari haqidagi ma'lumotlar va materiallar ham katta ahamiyatga ega. Jumladan kartografik metodlar negizida o'nlab ko'nikma va malakalarni shakllantirish imkoniyatlari tug'uladi[14].

Materiklar va okeanlar geografiyasini o'rganish bo'yicha ancha ilg'or tajribalar to'plangan. Ulardan unumli foydalanish har bir geografiya

o'qituvchisining muhim vazifasi va burchi bo'lishi kerak. Hozirgi kundagi dastur bo'yicha o'qitilayotgan materiklar va okeanlar geografiyasi o'z ichiga regional qismni, yani materiklarning tabiiy geografik xususiyatlarini va umumiy qismini oladi. Umumiy qism tabiat komponentlari umumiy qonuniyatlarini tushunish va o'zlashtirish uchun juda zarur xisoblanadi. Maktab materiklar geografiyasi oliy maktabdagi bu kursdan o'rganish tartibi bo'yicha birmuncha farq qiladi. Maktabda avval Afrika materigi, keyinchalik janubiy yarim shar materiklari, yakunida esa shimoliy yarim shardagi materiklar o'rganiladi. Kurs yakunida tuzulishiga ko'ra ancha murakkab va xilma-xil tabiiy sharoitlarga eg bo'lgan Yevroiyo materigi o'rganiladi. Materiklarni bu tartibda o'rganish didaktikaning sistemalilik, ilmiylik prinsplariga (tamoyiliga) to'g'ri keladi. Dasturda predmetlararo aloqalarga alohida e'tibor berilgan. Ayniqsa, fizika, botanika, tarix fanlari bilan bu aloqadorlik yaqqol namoyon bo'lgan. Materiklarni tadqiq qilish, kashf etish tarixiy bilimlarni aks etsa, atmosfera, gidrosfera, sirkulyatsiya kabi tushunchalar fizika bilan, tabiat zonalaridagi o'simliklar va hayvonot dunyosini o'rganish esa biologiya bilan predmetlararo aloqalarni o'rnatishni taqozo etadi va hakoza. Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasikursining maqsadi, mazmuni tuzilishini o'rganish jarayonida, materiklarga oid manbalar, ularning har biri ob'ektiga to'g'ri isidamanbalardan foydalanish imkoniyatlari yaratiladi. Chunki darsga oid bo'lgan manbalarni tanlashda birinchi navbatda o'tiladigan mavzu mazmuni muhim ahamiyat kasb etadi.

1.2. Geografiya talimida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llashning ahamiyati

Yangilangan ta'lim tizimini joriy etishda har bir o'qituvchining o'z faniga va barkamol avlod ta'lim-tarbiyasiga oid yangiliklarni muntazam o'rgana borib, ularni o'z mehnat faoliyatida izchil qo'llay bilish mahoratiga ega bo'lishi bugungi kunning muhim talabidir.

Innovatsion ta'lim texnologiyalarining mohiyati, turlari va nazariy asoslari. Lug'aviy jihatdan "innovatsiya" tushunchasi ingliz tilidan tarjima qilinganda ("innovation") "yangilik kiritish" degan ma'noni anglatadi. "Innovatsiya" tushunchasi mazmunan aniq holatni ifodalaydi. [16,22]

"O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi"da ko'rsatilishicha, innovatsiya quyidagicha mazmun va tushunchalarga ega: "Innovatsiya (ingl. "innovations" – kiritilgan yangilik, ixtiro) 1) texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta'minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag'lar; 2) ilmiy-texnika yutuqlari va ilg'or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalardagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalarda va faoliyat doiralarida qo'llanishi" [27]

A.I.Prigojinning fikriga ko'ra, innovatsiya maqsadga muvofiq ravishda muayyan ijtimoiy birlik-tashkilot, aholi, jamiyat, guruhga nisbatan munosabatga yangicha yondashish, bu munosabatni bir qadar turg'un elementlar bilan boytib borish tushunilishi lozim. Bu o'rinda anglanadiki, muallifning qarashlari bevosita ijtimoiy munosabatlar, ularga nisbatan innovatsion yondashish mohiyatini ifodalaydi. Shundan kelib chiqqan holda har bir shaxs fuqaro, mutaxassis, rahbar, xodim, qolaversa, turli ijtimoiy munosabatlar jarayonining ishtirokchisi sifatida o'ziga xos innovator faoliyatni tashkil etadi. [17]

Amerikalik psixolog E.Rodjers o'z tadqiqotlarida innovatsion xarakterga ega ijtimoiy munosabatlarning ijtimoiy-psixologik jihatlari, ijtimoiy munosabatlarga yangilik kiritish, bu jarayonda ishtirok etuvchi shaxslarning toifalari, ularning yangilikka bo'lgan munosabatlari, yangilikni qabul qilish, mohiyatini anglashga bo'lgan tayyorlik darajasi hamda muayyan shaxslar toifalari o'rtasidagi innovatsion xarakterga ega ijtimoiy munosabatlarning tasnifi masalalarini o'rgangan.[17]

Har bir pedagogik texnologiyalar o'quvchilarni ilm olishiga xizmat qiladi. Quyida innovatsion pedagogik texnologiyalarni ba'zilar bilan tanishib chiqamiz.


Izoh: O'quvchilar ta'riflarni yozma holda ifodalashlari lozim.

Izoh: Kichik guruhlar topshiriqni bajarish jarayonida mavzu yuzasidan material, dalil, fikrlarini tasdiqlovchi ko'rgazmali-didaktik vosita, imkoni bo'lsa, videofilm, maqola, iqtibos va boshqalarni tayyorlaydi.

“Skarabey” texnologiyasi. “Skarabey” (“Qo'ng'iz”)texnologiyasi o'quvchilarda mantiqiy fikrlash qobiliyatini, xotirani, shuningdek, muayyan muammoni hal qilishda o'z fikrini ochiq, erkin ifodalash malakasini rivojlanishiga xizmat qiladi. O'quvchi texnologiyani qo'llash jarayonida bilimlarining sifati, darajasini xolis baholash, o'rganilayotgan mavzu haqidagi tasavvuri ko'lamini aniqlash imkoniyatini qo'lga kiritadi. Texnologiya, shuningdek, turli g'oyalarni ochiq, erkin, mantiqan ifodalash, ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlashda ham samarali sanaladi.

Uning yordamida o'quvchilarda quyidagi sifatlarni shakllantirish, rivojlantirishga erishish mumkin: mustaqil ishlash; muloqatga erkin kirisha olish; xushfe'llik, o'zgalar fikrini hurmat qilish; faollik; faoliyatga ijodiy yondashish; faoliyatining samarali bo'lishiga qiziqish; o'z-o'zini baholash.

Undan darsning muayyan bosqichlarida turli maqsadlarda foydalanish mumkin. Ya'ni:



1.3-rasm. “Skarabey” texnologiyasi darsning muayyan bosqichlarida foydalanish.

Texnologiya o'quvchi tomonidan oson qabul qilinadi. Zero, u shaxsga xos fikrlash, bilish xususiyatlarini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan.



1.4-rasm. "Charxpalak" texnologiyasini amalga oshirish tartibi.

“Charxpalak” texnologiyasi. Texnologiya o’quvchilarda o’rganilgan mavzularni yodga olish, ular yuzasidan mantiqiy fikrlash, savollarga mustaqil, to’g’ri javob berish, o’z-o’zini baholash malakalarini shakllantirish, o’qituvchi tomonidan qisqa vaqtda o’quvchilarning bilimlarini baholash imkoniyatini yaratadi. Uning maqsadi o’quvchilarda mantiqiy fikrlash, o’z fikrlarini mustaqil, erkin bayon qilish, o’z-o’zini baholash, individual, juftlik, guruh va jamoada ishlash, boshqalar fikrini hurmat qilish, mavjud fikrlar orasidan muhimini tanlab olish ko’nikma, malakalarini rivojlantirishdan iborat. Texnologiyadan barcha turdagi o’quv mashg’ulotlarida, mashg’ulotning boshi yoki oxirida, muayyan bo’lim (bob) yakunida, o’tilgan mavzuni takrorlash chog’ida foydalanish mumkin. Shu bilan birga texnologiya o’quvchilarning bilimlarini mustahkamlash, o’rganilgan mavzularning o’quvchilar tomonidan qay darajada o’zlashtirilganligini aniqlash va baholashda ham samarali sanaladi.[19,24]

“Yumaloqlangan qor” metodi. Metod mavzuni muayyan qismlarga bo’lgan holda o’zlashtirish imkonini beradi, o’quvchilarda guruh va juftlikda ishlash ko’nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Uni qo’llashda o’quvchilar juftlik, guruh yoki jamoa bo’lib ishlari mumkin.

Mashg’ulotlarda metodni qo’llash yuqoridagi tartibda amalga oshiriladi:

“Yumaloqlangan qor” metodidan muayyan bo’lim yoki boblar o’zlashtirilgan nazariy va amaliy bilimlarni mustahkamlash maqsadida foydalanish samaralidir.


Eng ommaviy interfaol TT quyidagilarsanaladi:

Interfaol metodlar: “Keys-stadi” (yoki “O’quvkeysleri”), “Bliq-so’rov”, “Modellashtirish”, “Ijodiyish”, “Munosabat”, “Reja”, “Suhbat” vab.

2.Strategiyalar: “Aqliy hujum”, “Bumerang”, “Galereya”, “Zig-zag”, “Zinamazina”, “Muzyorar”, “Rotatsiya”, “T-jadval”, “Yumaloqlangan qor” vah.k.

3. Grafik organayzerlar: “Baliqskeleti”, “BBB”, “Konseptual jadval”, “Venndiagrammasi”, “Insert”, “Klaster”, “Nima uchun?”, “Qanday?” vab. [19,25]

Interfaol talim metodlarivaularni qo’llashtartibi. Aynio’rindabir guruh interfaol talim metodlarivaularning bazilari talim amaliyotida qo’llashtartib to’g’risida so’z yuritiladi.




1.5-rasm. “Yumaloqlangan qor” metodini amalga oshirish tartibi.

“Baliqskeleti” grafikorganayzeri
 (GO). GO talabalarda mavzu yuzasidan muayyan masala mohiyatini tasvirlash va yechish
 hqobiliyatini shakllantiradi. Uniqo'llashda O'quvchilarda mantiqiy fikrlash,
 mavzu mohiyatini yorituvchi tayanch tushuncha,
 malumotlarni muayyan tizimga keltirish, ularni tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlanadi.
 Undan foydalanish quyidagicha amalga oshiriladi:

- 1) o'qituvchi o'quvchilarni Goni qo'llash sharti bilan tanishtiradi;
- 2) o'quvchilar kichik guruhlariga biriktiriladi;
- 3) Guruhlar topshiriqlarni bajaradilar;
- 4) Guruhlar o'z echimlarini jamoaga taqdim etadilar;
- 5) jamoa guruhlarining echimlari yuzasidan muhokama uyushtiradi


1.6-Rasm. “Baliqskeleti” grafik organayzerini amalga oshirish.



1.7-Rasm. “Baliqskeleti” grafik organayzerini amalga oshirish chizmasi.

“Bilaman. bilishnixohlayman. biliboldim” (BBB) talabalargamuayyan mavzular bo'yicha bilimlaridara jasini baholay olishimkoninibera di. Uni qo'llashdatalabalarguruhyoki jamoada ishlashlarim umkin. Guruhda ishlashdamashg'ulot yakunidaguruhlartomonidan bajarilgan ishlartahlilqilin adi. [11]

Guruhlar faoliyati quyidagik o'rinishd atashkiletilishim umkin:



1.8-Rasm. “Baliqskeleti” grafik organayzerini uyushtirish.


O’quvfaoliyatibe vositayozuv taxtasiyokiishqog’ozidao’zaksinitopganquyidagisx
emaasosidatashkiletiladi:

“BBB jadvali”

1.1-Jadval

Bilaman	Bilishnixohlayman	Biliboldim

GOdan foydalanish uch bosqich asosida amalga oshiriladi:



1.9-Rasm. “BBB jadvalini” grafik organayzerini amalga oshirish.

Bosqichlarbo'yichaamalgaoshirilganharakatlarningtafsilotiqo'yidagicha:

- 1) O'quvchilar kichik guruhlariga biriktiriladi;
- 2) O'quvchilarning yangi mavzu bo'yicha tushunchalarga egalik darajasi o'rganiladi;
- 3) O'quvchilar tomonidan qayd etilgan tushunchalar loyiha 1-bandiga yozib boriladi;
- 4) O'quvchilarning yangi mavzu bo'yicha mavjud bilimlarini boyitishga bo'lgan ehtiyojlari o'rganiladi;
- 5) talabalar ehtiyojlari sifatida bayon etilgan tushunchalar loyiha 2-bandiga yozib qo'yiladi;
- 6) o'qituvchi yangi mavzuga oid umumiy ma'lumotlardan talabalarni xabardor qiladi;
- 7) talabalar tomonidan o'zlashtirilgan yangi tushunchalar aniqlanadi;
- 8) bayon etilgan yangi tushunchalar loyiha 3-bandiga yozib qo'yiladi;
- 9) mashg'ulot yakunida yagona loyiha yaratiladi

1.10-Rasm. “BBB jadvalini” grafik organayzerini uyushtirish bosqichlari.

Innovatsion texnologiyalar va pedagogik texnologiyalarning turlari juda ko'p bo'lib, faqat ularning ba'zilariga to'xtalib o'tdik.[22,23]

O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talablaridan biri ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo'llash, dars o'tishning yangi zamonaviy metodikasini yaratish, talabaning ma'lum bir faoliyatga bo'lgan qiziqishini orttirish, muloqot madaniyatini rivojlantirish, o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirishning yangi usullarini ishlab chiqish hisoblanadi. Jumladan quyidagilar: Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim. Bu ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Bu esa ta'limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma'lum birta'lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi o'quvchilarni kasbga yo'naltirishni nazarda tutadi. [6]

Tizimli yondoshuv. Ta'lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o'zida mujassam etmog'i lozim: jarayonning mantiqiyliigi, uning barcha bo'g'inlarini o'zaro bog'langanligi, yaxlitligi.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondoshuv. Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta'lim oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va intensivlashtirish, o'quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo'naltirilgan ta'limni ifodalaydi.

Dialogik yondoshuv. Bu yondoshuv o'quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o'z-o'zini faollashtirishi va o'z-o'zini ko'rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish. Demokratik, tenglik, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e'tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

Muammoli ta'lim. Ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta'lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni obyektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda

qo'llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta'minlanadi. Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo'llash - yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llash.[18,19]

O'qitishning usullari va texnikasi. Ma'ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallash), muammoli ta'lim, keys-stadi, pinbord, paradoks va loyihalash usullari, amaliy ishlar.

O'qitishni tashkil etish shakllari: dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o'zaro o'rganishga asoslangan frontal, kollektiv va guruh.

O'qitish vositalari: o'qitishning an'anaviy shakllari (darslik, ma'ruza matni) bilan bir qatorda – kompyuter va axborot texnologiyalari.

Kommunikasiya usullari: tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosita o'zaro munosabatlar.

Teskari aloqa usullari va vositalari: kuzatish, blis-so'rov, oraliq va joriy va yakunlovchi nazorat natijalarini tahlili asosida o'qitish diagnostikasi.

Boshqarish usullari va vositalari: o'quv mashg'uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik karta ko'rinishidagi o'quv mashg'ulotlarini rejalashtirish, qo'yilgan maqsadga erishishda o'qituvchi va tinglovchining birgalikdagi harakati, nafaqat sinf mashg'ulotlari, balki sinfdan tashqari mustaqil ishlarning nazorati [17,25]

Monitoring va baholash: o'quv mashg'ulotida ham butun kurs davomida ham o'qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs oxirida test topshiriqlari yoki yozma ish variantlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi. “Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi” fanini o'qitish jarayonida kompyuter texnologiyasidan, “Pover point” dasturidan foydalaniladi. Ayrim mavzular bo'yicha o'quvchilar bilimini baholash test asosida va kompyuter yordamida bajariladi. “Internet” tarmog'idagi rasmiy iqtisodiy ko'rsatkichlaridan foydalaniladi, tarqatma materiallar tayyorlanadi, test tizimi hamda tayanch so'z va iboralar asosida nazoratlar o'tkaziladi.[19]

Bitiruv malakaviy ishimizning keyingi qismlarida innovatsion pedagogik texnologiyalardan kurs mavzulari misolida ko'rib chiqishga harakat qilamiz.

1.3.Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi darsligidagi o'zgarishlar, geografiya talimidagi yangiliklar

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi 187-sonli “Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar talimining davlat talim standartlarini tasdiqlash to'g'risida”gi qarori, Xalq talimi vazirligining 2017 yil 3 iyundagi 190-sonli buyrug'i asosida tabiiy va aniq fanlardan kompetentsiyaviy yondashuvga asoslangan o'quv dasturlari tasdiqlandi. 2017-2018 o'quv yilida 6,7-sinflar amaliyotga joriy etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 7 iyuldagi “Umumtalim maktablari va o'rta maxsus, kasb-hunar talimi muassasalari o'rtasida o'zaro integratsiyani taminlangan holda 11 yillik talim tizimini tubdan isloh qilish choralari to'g'risida”gi 94-sonli bayoni hamda 2017 yil 25 iyuldagi 803-F farmoyishi asosida 2017-2018 o'quv yilidan o'quv dasturlari 10-sinflarda amaliyotga joriy etiladi.[7]

“Tabiiyot va geografiya” faniga oid kompetentsiyalar

- 1.Tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy jarayon hamda hodisalarni kuzatish, aniqlash, tushunish va tushuntirish kompetentsiyasi;
2. Geografik obektlar, joy nomlarini to'g'ri qo'llay olish kompetentsiyasi;
3. Globus, geografik atlas va xaritalardan amaliyotda foydalana olish kompetentsiyasi;
4. Tabiatni muhofaza qilish va ekologik madaniyat kompetentsiyasi.

Geografiya 6-sinf o'quv dasturidagi mavzularga kiritilgan o'zgarishlar

6-sinf geografiya o'quv dasturida ko'proq mavzular ketma-ketligiga amal qilindi. 10-mavzu: Materiklar va okeanlarning paydo bo'lishi mavzusi, 7-mavzuga o'tkazildi. Amaldagi dasturda 9 soat berilgan “2-bob. Dunyo okeani” (takomillashgan dasturda) 5 soat hajmda qolgan 4 soatida mavzular ketma-ketlikda berildi. Amaldagi dasturda “Amaliy mashg'ulot” darsi uchun ajratilgan 7 soat hisobidan 9-10-mavzu: “Atmosfera. Erning iqlim mintaqalari, “Yer yuzi aholisi, irqalar”, “Dunyo okeani tubining reliefi”, “Afika materigi aholisi va uning tabiatga tasiri”, “Avstraliya materigi aholisi va uning tabiatga tasiri”,

“Janubiy Amerika aholisi”, “Shimoliy Amerika aholisi”, “G’arbiy va Sharqiy Sibir” mavzulari kiritildi. Okeaniya mavzusi takrorlash darsi hisobidan 2 soatga ajratib berildi.

Umumiy o’rta talim maktablarida Geografiya o’quv fanini o’rganish bosqichlari

1.2-jadval

Talim bosqichi	Bitiruvchilar	Standart darajasi	Daraja nomlanishi
Umumiy o’rta talim	Umumiy o’rta talim maktablarining 9-sinf bitiruvchilari	A2	Geografiya fanini o’rganishning tayanch darajasi
	Geografiya fani chuqur o’rganiladigan ixtisoslashtirilgan umumiy o’rta talim maktablarining 9-sinf bitiruvchilari	A2	Geografiya fanini o’rganishning kuchaytirilgan tayanch darajasi
O’rta talim	Umumiy o’rta talim bitiruvchilari	V1	Geografiya fanini o’rganishning tayanch darajasi
	Geografiya fani chuqur o’rganiladigan ixtisoslashtirilgan o’rta talim bitiruvchilari	V1	Geografiya fanini o’rganishning kuchaytirilgan tayanch darajasi

6-sinf Geografiya darsliklariga kiritilgan o’zgarishlar (% hisobida).

Barcha turdagi o’zgartirishlar kiritilgan mavzular: 6-sinfda 68 ta mavzu 100 %

Yangidan kiritilgan mavzular: 6-sinfda 6 ta mavzu 9%

6 sinf Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi darsligi A Soatov, A Abdulqosimov, M.Mirakmalov tomonidan umumiy o’rta talim maktablarining o’quvchilari uchun darslik sifatida “O’qituvchi” nashriyot- matbaa ijodiy uyi. Toshkent-2017 yil nashrdan chiqdi va talim jarayoniga tadbqiq etildi.

Darslik mazmunan to’rtta bo’limdan iborat. Bular so’zboshi, geografik qobiq, okeanlar tabiati, materiklar tabiatidan iborat.

Birinchi bo’limda darslikda nimalar o’rganilishi, darslikning qisqacha mazmuni, atamalar, geografik xaritalar, atlaslar, globuslar haqida maxlumot beriladi.


Ikkinchi bo'limda geografik qobiqning xususiyatlari, chegaralari, rivojlanish qonuniyatlari, vertikal va gorizontal tuzilishi to'g'risida fikr bildirilgan.

Uchinchi bo'limda Dunyo okeanining qismlari va ularning materiklar tabiatiga tasiri, Dunyo okeani tabiati, jahon xo'jaligida tutgan hozirgi va istiqboldagi o'rni haqida malumotlar berilgan.


To'rtinchi bo'limda materiklarni o'rganish jarayonida mashhur dengizchilar, kashfiyotchi sayyohlar haqida, materiklarning tabiati, materik va orollarda qanday xalqlar yashashi va hokozolar haqida malumot beriladi.[20]

Darslikka illyustrativ materiallar ham yangi kiritilgan 1, 9, 13, 18, 20 rasm va 2 ta jadval.

Darslik 68 & 9 ta qism ilovalardan tashkil topgan.



1.11-rasm. Geografik qobiq-Tabiiy geografiyani o'rganish obekti.



1.12-rasm.Okean tubi relefi.



1.13-rasm.Serengeti milliy bog'idagi zebralar.



1.14-rasm. Sentral Kalaxaridagi sher.



Argentinadagi Chako milliy bog'i



Braziliyadagi Jau milliy bog'i

1.15-rasm. Janubiy Amerikadagi milliy bog'lar.



1.16-rasm. Katta havza va Kanada Kordilera tog'lari.

1.3-Jadval

Geoxronologik jadval

Era, belgisi, davom etishi	Davr, belgisi	Tog' burmalanishi	Asosiy o'zgarishlar
1	2	3	4
Arxey AR 1 mlrd yil	Bo'linmaydi		Oddiy bakteriyalar, suv-o'tlari paydo bo'lgan.
Proterozoy PR 2 mlrd yil	Quy O'rta Yuqori	Bir necha burmalanishlar bo'lgan	Yashil suvo'tlar, bakteriyalar rivojlangan.
Paleozoy PZ 330 mln yil	Kembriy, Cm Ordovik, O Silur, S Devon, D Toshko'mir, C Perm, P	Baykal Kaledon Gersin	Quruqlikda organizmlar, ayniqsa, o'simliklar rivojlangan. Toshko'mir hosil bo'lgan. Hozirgi keksa tog'lar paydo bo'lgan.
Mezozoy MZ 173 mln yil	Trias, T Yura, I Bo'r, Cr	Mezozoy (kimmeriy)	Bahaybat dinozavrlar paydo bo'lgan.
Kaynozoy KZ 67 mln yil	Paleogen, Pg Neogen, N Antropogen, Q	Alp	Yosh tog'lar, iqlim mintaqalari, tabiat zonalari, odam paydo bo'lgan.

1.4-Jadval

Yerning iqlim mintaqalari

Iqlim mintaqalari	Havo massalari	Iqlim xususiyatlari
Asosiy iqlim mintaqalari		
Ekvatorial	Ekvatorial, issiq va nam	Yil bo'yi issiq va seryomg'ir yoz, harorat +24 +26 °C atrofida saqlanadi
Shimoliy va janubiy tropik	Tropik, issiq va quruq	Yoz issiq, quruq; qish iliq, quruq. Yog'in kam yog'adi
Shimoliy va janubiy mo'tadil	Mo'tadil, iliq va nam	To'rtta fasl aniq namoyon bo'ladi
Qutbiy (arktika va antarktika)	Qutbiy, sovuq va quruq	Yil bo'yi sovuq, yog'in kam yog'adi. Yer qor va muzlik bilan qoplangan
Oraliq iqlim mintaqalari		
Shimoliy va janubiy subekvatorial	Yozda ekvatorial, qishda tropik	Yoz issiq, seryomg'ir; qish iliq, quruq
Shimoliy va janubiy subtropik	Yozda tropik, qishda mo'tadil	Yoz issiq, quruq; qish iliq, yog'inli (yomg'ir, ba'zan qor)
Subarktika va subantarktika	Yozda mo'tadil, qishda qutbiy	Yoz biroz iliq, yog'inli; qish sovuq, quruq

Demak, Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi darsligida keltirilgan illyustrativ materiallar, materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasida o'quvchiga tushuntirish qiyin bo'lgan qonuniyatlar bilan tasvirlash xususiyatiga ega bo'lgan manbalar asosida tushuntirishga harakat qilingan. Bu esa o'quvchilarning geografik bilim, ko'nikma, malakalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

II-BOB. MATERIKLAR VA OKEANLAR TABIIY GEOGRAFIYA KURSINI O'QITISHDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARNI QO'LLASH USULLARI

2.1. Materiklarning geografik o'rni o'rganish tarixi, foydali qazilmalari, relefini o'rganishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanilgan dars ishlanmalarini yaratish

Biz tadqiqotlarimizni dars ishlanmalari yaratish va ularni amaliyotda sinovdan o'tkazish uchun bir necha mavzular asosida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llagan xolda dars ishlanmalari va texnologiyalarni dars ishlanmalari yaratishga harakat qildik. Quyidagi mavzu asosida dars ishlanma yaratdik.

Mavzu: Afrika materigining geografik o'rni, o'rganilish tarixi.

Sinf: - 6

Mavzu: Afrika materigining geografik o'rni, o'rganilish tarixi.

Vaqt: 45 daqiqa.

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: O'quvchilarni Afrika materigining geografik o'rni, tadqiq qilish tarixi bilan tanishtirish, materikning asosiy xususiyatlarini ochib berish.

Tarbiyaviy: o'quvchilarni darslikdan tashqari adabiyotlarni o'qishga da'vat etish; tabiat in'omlaridan oqilona foydalanishni o'rgatish asosida ekologik dunyoqarashini kengaytirish.

Rivojlantiruvchi: guruhlarda ishlash orqali mustaqil fikrlash ko'nikmasini rivojlantirish, geografik obyektlarga tavsif berishga o'rgatib boorish, nutq madaniyatini o'zlashtirish, o'z-o'zini boshqarishga yo'naltirish, hozirjavoblik, topqirlik xususiyatlarini rivojlantirish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi.

Dars shakli: individual va kichik guruhlarda ishlash.

Darsda foydalaniladigan metodlar: aqliy hujum, suhbat, hikoya, og'zaki bayon qilish, ajratish usuli.

Darsda foydalaniladigan jihozlar: 6-sinf darsligi, globus, dunyoning tabiiy xaritasi, Afrika materigining tabiiy xaritasi, 6-sinf atlas va yozuvsiz xaritasi.

Darsning texnik jihozi: kompyuter, 6-sinf elektron darsligi.

Darsning borishi: tashkiliy qism. Salomlashish, o`quvchilarning darsga tayyorligini, davomat, sana va ob- havoni aniqlash.

Diqqatni tortish mashqi: so`z zanjiri mashqi o`tkaziladi. Har bir guruh a`zolari 2 daqiqa ichida geografik atamalarini ketma-ket yozishlari kerak. Masalan, Azimut – Tuman – Nivelir – Relyef – Flugler – Ruletka – Atmosfera – Aglomeratsiya – Artezian – Namlik – Kompas – Sayyoh – Havo – Okean – Nisbiy balandlik – Ko`l – Litosfera – Anemometr va h.k.

O`tilgan mavzuni so`rash uchun o`quvchilar 4 guruhga bo`linib olinadi:

1-guruh: “Tinch okeani”.

2-guruh: “Atlantika okeani”.

3-guruh: “Hind okeani”.

4-guruh: “Shimoliy muz okeani”.

Guruhda ishlash qoidalarini ishlab chiqiladi.

Baholash mezonlari: “Materiklarga sayohat” magnit doskasiga 4 xil kema rasmi yopishtirilgan. Har bir guruh kemasi o`z okeanidan yo`lga chiqib, 3ta portda (3ta shart) to`xtab, Afrika materigiga yetib borishlari kerak. Qaysi guruh o`z manziliga yetib borolsa, shu guruh a`zolari “5” ball bilan baholanadi. 2-portgacha borsa, “4” ball bilan baholanadi.


1-topshiriq: har bir guruhga 4 ta okean haqidagi ma`lumotlar yozilgan qog`ozchalar aralashtirib beriladi. Guruh a`zolari birgalikda 3 daqiqa ichida o`z okeanlariga taalluqli bo`lgan so`zlarni ajratib, o`z kemalari rasmi chizilgan qog`ozga yopishtirishlari kerak.

Guruhlar javoblari eshitilgach, to`g`ri javob bergan guruh kemalari keying portga o`tkaziladi.

O`qituvchi o`quvchilar javoblarini umumlashtirib, yangi mavzuni o`quv filmi asosida tushuntiradi.

Yangi mavzu bayoni: O'qituvchi: - Hammayoq cho'lu biyobon. Goho sarg'ish va upaday yengil qumlardan, goho nuragan kulrang toshloqdan o'tasiz. G'uborli osmon, jazirama issiq. Na suv, na ko'kat bor. Bu – Afrikaning cho'l qismi, u qit'a hududining 4/5 qismini egallagan.

Qalin tropik o'rmon, uning orasida faqat bolta bilan yo'l ochib yurish mumkin. Daraxtlar, butalar, chirmoviqlar; qalin va sernam yaproqlar; nihoyatda rang-barang va xushbo'y gullar; qushlari gulga, kapalaklari qushga o'xshaydi. Yorug'lik kam tushadigan bu yerda hamisha g'ira – shira va namgarchilik. Chirildoqlar galasi bor ovozda chirillaydi, yirtqich hayvonlarning na'rasi va maymunlarning chiyillashi eshitilib turadi. Bu yerda o'simliklar yil bo'yi barq urib o'sadi. Bu ham Afrika.



2.1-rasm. Afrika materigi koordinatasi, chekka nuqtalari.

Dasht desangiz dasht emas. O't bosgan tekislikda qizg'ish va qo'ng'ir qoyatoshlar, ular betini yumshoq chim qoplagan. Uzoqda jingalak chakalakzorlar ko'rinadi, yaqinroq borib qarasangiz, chakalakzorlar emas, balki pas bo'yli ulkan baobab daraxti ekan. Bu-Afrika savannasi. Ha, Afrika tabiati ana shunday xilma-xildir.

O'qituvchi Afrika materigi haqida qisqacha ma'lumot bergandan so'ng har bir guruhga alohida topshiriq beradi: guruh a'zolari darslik va atlasdan foydalanib, daftarga yoki yozuvsiz xaritaga topshiriqni bajarishlari kerak.

“Tinch okeani” guruhiga: Afrika materigini o'rab turgan okean, dengiz, qo'ltiq va kanal nomini yozuvsiz xaritaga yozish.

“Atlantika okeani” guruhiga: Afrika materigining chekka nuqtalari nomini yozuvsiz xaritaga yozish va ularning geografik koordinatalarini aniqlash.

“Hind okeani” guruhiga: Afrika materigi shimoliy va janubiy chekka nuqtalari hamda g'arbiy va sharqiy chekka nuqtalari orasidagi masofani aniqlang.

“Shimoliy Muz okeani” guruhiga: Afrika materigini o'rgangan sayyohlar sayohati jadvalini to'ldiring.

2.1-jadval

T/r	Sayyohlar	Sayohatlar
1.	Ibn Battuta	
2.	Bartolomeu Diash	
3.	Vasko da Gama	
4.	Devid Livingston	
5.	Stenli	
6.	Vavilov	

Guruhlar javoblari eshitilgach, to'g'ri javob bergan guruh kemalari keying portga o'tkaziladi.

Yangi mavzuni mustahkamlash: matn ustida ishlash.

Guruhlarga matn beriladi. Ular matndagi tushurib qoldirilgan so'zlarni darslik yordamisiz to'ldirishlari kerak.

Afrika materigining maydoni mln. Km. Materik dastlab deb atalgan. “Afrika” so'zi qadimgi berberlarning qabilasi nomidan olingan. Afrika yarimsharda joylashgan yagona materik. Materikning eng yirik yarim oroli- yarim oroli, eng yirik oroli orolidir. Materikning eng shimoliy chekka nuqtasi burni, eng janubiy nuqtasi burnidir.

To'g'ri javoblar. Tushirib qoldirilgan so'zlar: 30,3. Liviya. Afarik.To'rtta. Somali. Madagaskar. Ras-Engel. Igna.

Guruhlar javoblari eshitilgach, to'g'ri javob bergan guruh kemalari oxirgi portga o'tkaziladi.

O'quvchilar baholanadi.

Uyga vazifa: mavzuni o'qib kelish, savollarga javob yozish. Yozuvsiz xaritaga Afrika materigining chekka nuqtalarini va koordinatalarini yozish. Materikni o'rgangan sayyohlarning yurgan yo'llarini tushurish.

Okeaniya mavzusini o'rganishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish

Mavzu: O k e a n i y a

2.2-jadval

Dars mashg'uloti ta'lim texnologiyasi		
O'quv soati: 45 minut		O'quvchilar soni: 30
Dars rejasi:		1. Asosiy xususiyatlari,geografik urni. 2.O'rganilish tarixi,geologik tuzilishi varelefi. 3.Iqlim mintaqalari,o'simlik vahayvonot dunyosi, Aholisi.
O'quv mashg'ulotining maqsadi:		-Ta'limiy maqsad: O'quvchilarda Okeaniya tabiiy-geografik o'rni, asosiy xususiyatlari haqida tasavvur qilish. -Tarbiyaviy maqsad: Shaxsning qanday sifatleri shakllantirishi ko'rsatiladi (axloqiy,ekologik tarbiya berish, Vatanga sadoqat, mehnatini ulug'lash. -Rivojlantiruvchi maqsad: O'quvchilar aqliy faolyatining qanday shakllarini(matnlarga ishlov berish, jihozlardan foydalanish va qanday mantiqiy jarayonlarni o'zlashtiradilar va bu qanday natja berish ifodalanadi (nutqini,fikrini ustirish harakatlarni rivojlantirish)
Pedagogik vazifalar: 1.Okeaniya haqida nimalarni bilasiz? 2.Okeaniya qanday kenglikda joylashgan?.		O'quv faoliyati natijalari: 1.Okeaniya sochlib yotgan orollar xisoblanadi. 2.Okeaniya janubiy kenglikda joylashgan.
Ta'lim metodlari:		Tushunchalar tahlili.
Ta'lim shakli:		Jamoaviy, guruhlarda ishlash.
Ta'lim vositalari:		Kompyuter, Okeaniya tabiiy xaritasi, proyektr, mavzuga oid slaydlar, darslik, tarqatmalar.
Nazorat:		Kuzatish, tarqatma material topshiriqlari.
Baholash:		Rag'batlantirish, 5-ballik tizim asosida
Darsning texnologik xaritasi		
Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat	
	O'qituvchi:	O'quvchi:
1.Bosqich O'quv mashg'ulotiga kirish (15-min.)	1.1 Tashkiliy qism. Tashkiliy qismda o'quvchilar guruhlariga bo'linadi va guruh sardorlari saylanadi, guruhlar nomlanadi.(1-ilova)I guruh <Afrika> II guruh <Avstiraliya>	-Aniqlashtiradilar savollar beradilar, tinglaydilar. -Berilgan topshiriqni bajaradilar, guruhlar haqida ma'lumot va o'tilgan mavzuni

	III guruh <Antarktida> 1.2 O'quv mashg'ulotida o'quv ishlarni baholash mezonlari bilan tanishtiradi. 1.3 O'tilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida "Uchunchisi ortiqcha", "Raqamli diktant" metodlaridan foydalanib, o'quvchilarga topshiriq beradi. (2- ilova)	mustahkamlaydilar.
2-Bosqich Asosiy (10-min.)	2.1. Yangi mavzu reja asosida Kompyuter, proyekt, mavzuga oid tayyorlangan slaydlar orqali namoyish etiladi va tushuntiriladi. (3-ilova)	-Ko'radilar, tinglaydilar, kerakli joylarini yozib oladilar.
3-Bosqich Yakuniy (20-min.)	3.1 Yangi mavzuni mustahkamlash maqsadida "Uchunchisi ortiqcha" metodidan foydalanib topshiriq beradi. (4- ilova) 3.2 Guruhlar ishini baholaydi, o'quv mashg'ulotining maqsadga erishish darajasini tahlil qiladi. 3.3 Uyga vazifa "Tushunchalar tahlili" metodidan foydalanib topshiriq beriladi. (5- ilova)	-Guruhlarda ishlaydilar, topshiriqni bajaradilar. -Uyga berilgan topshiriqni yozib oladilar.

1-Ilova

- 1.O'quvchilar bilan salomlashish.
- 2.Davomatni aniqlash.
- 3.Sinf tozaligiga e'tibor berish.
- 4.Bugungi kun yangiliklarini o'quvchilardan so'rash.
- 5.O'quvchilarni 3- guruhga bo'lish.
- 6.Guruhlar nomini aniqlashtirish uchun o'quvchilarga savol beriladi:

1-Guruhga savol.Eng issiq materik?

Javob: <Afrika>

1-guruh nomi. <Afrika>

2-savol: Xaltali xayvonlar vatani?

Javob: <Avstiraliya>

2-Guruh nomi. <Avstiraliya>

3-savol:Eng sovuq materik?

Javob: <Antarktida>

3-Guruh nomi; <Antarktida>

2-Ilova

O'tilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida "Uchinchisi ortiqcha","Raqamli diktant" metodlaridan foydalanib, o'quvchilarga topshiriq beradi.

"Uchinchisi ortiqcha"

Ushbu metodda o'quvchilar bir-biriga mos keladigan 2 ta to'g'ri va 1 ta noto'g'ri savol topshiriq jadvali ichidan qaysi biri ortiqchaligini tez topsalar o'sha guruh g'olib bo'ladi.

(O'quvchi varianti)

2.3-jadval

№	Afrika	Avstiraliya	Antarktida
1	Nil	Murrey	Kongo
2	<u>Madagaskar</u>	-89,2 ⁰ C	Imperator pingvini
3	Kenguru	Janubiy	Vostok stnsiyasi

(O'qituvchi varianti)

2.4-jadval

№	Afrika	Avstiraliya	Antarktida
1	Nil	Murrey	Kongo
2	<u>Madagaskar</u>	-89,2 ⁰ C	Imperator pingveni
3	Kenguru	Janubiy	Vostok stnsiyasi

Tabiiy obektlarni raqamlarini ularning idora qilish shakliga yozing.

(O'qituvchi varianti)

2.5-jadval

№	Tabiiy ob'ektlar	Qaysi materikka tegishli
1	Kongo	Afrika 1,2,4,6,8,9,
2	Vektoriya	
3	Murrey	
4	Nil	
5	Jaya cho'qqisi	Avstiraliya 3,5,7,10,
6	Madagaskar o.	
7	Eng past materik	
8	Kilimanjaro	
9	Drakon	
10	Sidney, Melburn	

Tabiiy ob’ektlarni raqamlarini ularning idora qilish shakliga yozing
(O’quvchi varianti)


2.6-jadval

№	Tabiiy obektlar	Qaysi materikka tegishli
1	Kongo	Afrika
2	Viktoriya	
3	Murrey	
4	Nil	
5	Jaya cho’qqisi	Avstiraliya
6	Madagaskar o.	
7	Eng past materik	
8	Kilimanjaro	
9	Drakon	
10	Sidney, Melburn	

4-Ilova

Yangi mavzuni mustahkamlash maqsadida “Venn diagrammasi” metodidan foydalanib topshiriq beradi.

(O’qituvchi varianti)



2.2-rasm. Afrika va Avstraliya. “Venn diagrammasi”

Asosiy xususiyatlari: Okyaniya – bepayon suvli maydonlarda sochlib yotgan orollar dunyosi, suv tagidan hisoblansa, harakatdagi eng baland vulqoni bor, zaharli ilonlari, yirtqichlari va yirik sutemizuvchi hayvonlari yo’q, yagona

uchko'zli kaltarkesak shu yirda yashaydi, endemik organizimlari ko'p quruqlikka nisbatan suvli muhit eng ko'p maydonini (98%) egallaydi. Quruqlikning 90% maydoni ikki orolga to'g'ri keladi.

Geografik o'rni:Geografik olimlar Okyaniya tabiatining rang barangligiga asoslanib uni alohida qit'a deb atashadi. Tinch okeanining markaziy va g'arbiy qismlarida sochlib yotgan katta-kichik orollar Okeaniya deyiladi. 2% quruqlik tashkil etadi, Okeaniya 7 mingdan ortiq orollarni birlashtiradi. Orollarning umumiy maydoni 1.3 mln km²

O'rganilish tarixi: F.Magellan 1521-y, sayohatidan keyin yevropaliklarga malum bo'lgan.J Kuk 1771-1773 y ko'plab orollarni xaritaga tushurgan. XIX-asrda ruslar 40 marotaba ekspeditsiya uyushtirgan. Qhu asrning oxirida "Chellenjer" ekspeditsiyasi 1873-1876-y Okeaniya orollari aholisi haqida ma'lumot tuplagan. M.N.Mikiluxo—Maklay 1871-1882-y Yangi gvineya papuaslari bilan birga yashab, ularni yashash tarz haqida bebaho malumotlar yozib qoldirgan

Geologik tuzilishi va relyefi:Orollar geologik tarixi va qanday jinslardan tuzilganligiga qarab bir necha guruhlariga bo'lish mumkin, Materik orollari(Yangi Gvineya,Yangi Zellandiya,). Vulqonli orollar(Gavayi,Pasxa,Tuamotu),geosinklinal orollar(Maryana,Yangi Kalidoniya,) biogen(marjon,atoll,rif)orollari ko'p uchraydi.Eng baland cho'qqi Yangi Gvineya orolidagi Jaya cho'qqisi(5030)m hisoblanadi.

Iqlim mintaqalari:Barcha orollarida ekvatorial, subekvatorial va tropik iqlim mintaqalarida joylashgan. Faqat Yangi Zellandiya va unga yaqin orollar subtropik va mo'tadil iqlim mintaqalariga to'g'ri keladi. Umuman okeaniya iliq yumshoq bo'lib kunduz tush paytida 30⁰C, kechasi 23⁰Cni tashkil etadi. Yog'inlar ko'p o'rtacha 3000-4000mm Gavayi oroliga 12500-14000mm yog'in yog'shi kuzatilgan.

O'simlik va hayvonot dunyosi:Orollarning asosiy qismi doimiy yashil nam o'rmonlar va savannalar bilan qoplangan.Daraxtlardan qimmatlisi kokos va sago palmalari,kauchikli daraxt,banan,non va qovun daraxtlari,mango,shakarqamish.

Hayvonot olami o'ziga xos.Yangi Giviniya va unga yaqin orollarda kazuar tovug'i.Yangi Zelandiyada 3 turdagi kivi tovuqlari pingvin va boshqa dengiz qushlari juda ko'p (albatiros,bo'ron,qushi,baliqchi qush).

Aholisi:Okeaniyada 15 mln aholi yashaydi (2012-y) Yangi Zelandiyada tub joy aholisi maorilar 9%.Asosiy aholisi ingliz Yangi Zelandiyaliklardan iborat. Yangi Zelandiya Yangi Kaledonya, Yangi Gvineya, Gavayida kelgindilar ko'p. Bu yirda aholini ko'pchiligi shaharlarda yashaydi. Boshqa orollarda qishloq aholisi kop'chlikni tashkil etadi, mahalliy aholi kokos, palmsa, banan, shakarqamish, ananas, kofe, kakao, yetishtiradi. Baliqchilik, o'rmonchilik, turistlarga xizmat ko'rsatish, dengizdan dur olish, rangli metal rudalari, ko'mir, neft qazib chiqarishda ishlaydi.[20.78-81b]

5- ilova

Uyga vazifa “Tushunchalar tahlili” metodidan foydalanib topshiriq beriladi. O'quvchilar tushunchalar mazmunini yozib keladilar.

2.7-jadval

№	Tushunchalar	Izoh
1	F.Magellan 1521-y	
2	15 mln aholi	
3	12500-14000mm	
4	Quruqlikning 90% maydoni	
5	Vulqonli orollar	
6	M.N.Mikiluxo—Maklay 1871-1882-y	
7	Maorilar	
8	1.3 mln km²	
9	40 marotaba ekspeditsiya uyishtirgan.	
10	“Chellenjer”ekspeditsiyasi	

Hozirgi kunda har bir dars soatini DTS talablari asosida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib o'tish dars samaradorligini oshirishning asosiy omilidir. “Materiklar va Okeanlar tabiiy geografiyasi” Okeaniya mavzusida bir soatlik dars ishlanma tayyorladim. Dars ishlanmani tayyorlashda” Aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, uchinchisi ortiqcha, Venn diagrammasi,

“Tushunchalar tahlili” metodlaridan foydalandim. Ushbu texnologiyalar o’quvchilarni o’tilgan mavzularni esga olishga, mantiqan fikrlab, berilgan savollarga mustaqil ravishda to’g’ri javob berishga va o’z-o’zini baholashga o’rgatishga hamda qisqa vaqt ichida o’qituvchi tomonidan barcha o’quvchilarning egallagan bilimlarini baholashga qaratilgan.

Bu texnologiyalar o’quvchilarni dars jarayonida mantiqiy fikrlash, o’z fikrlarini mustaqil ravishda erkin bayon eta olish, o’zlarini baholash, yakka va guruhlarda ishlashga, boshqalar fikriga hurmat bilan qarashga, ko’p fikrlardan keraklisini tanlab olishga, qo’shimcha adabiyotlardan foydalanish, guruhlarda ishlash, mustaqil fikrlash, o’z fikrini erkin bayon qilish, solishtirish, taqqoslash, umumlashtirish, mantiqiy o’ylash, tushunchalar mazmunini ayta olish ko’nikmalari rivojlantiradi.

2.2.Materiklarning iqlimi, ichki suvlari, tabiat zonalarini o’rganishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullari

Biz bitiruv malakaviy ishini bu bo’limida birinchi navbatda mavzumizning asosiy nazariy tomonini ochish bilan birgan zamonaviy pedagogik atamalar bo’yicha ishlangan keysni misol qilib, mavzu asosidagi keysimizni yaratamiz

Quyida keltirilgan amaliy keys bilan tanishing va pastda ko’rsatilgan jadval asosida uningyechimini toping.

Keys: Zamonaviy pedagogik atamalar. 2011 yilning mart oyida “Pedagogika” kafedrasida “Zamonaviy pedagogik atamalar” mavzusiga bag’ishlangan seminar-trening o’tkazildi. Seminar-treningda hozirgi vaqtda talim jarayonida qo’llanilayotgan “metodika”, “texnologiya”, “interfaol metod”, “strategiya”, “grafik organayzerlar” kabi atamalar tahliliga alohida etibor qaratildi. Seminar-treningda pedagogik texnologiyalar sohasiga doir qator izlanishlar olib borgan mutaxassis olimlar taklif etildi. [16,17]

Moderator birinchi bo’lib so’z navbatini “metodika” va “texnologiya” tushunchalari mohiyatini aniqlashtirib berish uchun pedagogika fanlari doktori,

professor I.Jo'raevga berdi. Olim o'z nutqida "Metodika – qat'iy ketma-ketlikka (algoritmik xarakterga), ilgari o'rnatilgan reja (qoida), tizimga aniq rioya qilish bo'lib, biror bir ishni maqsadga muvofiq o'tkazish metodlari, yo'llari majmuasi"ni, "texnologiya – bu rejalashtirilgan o'qitish natijalariga erishish jarayoni tavsifi"ni ifoda etadi, degan umumiy fikrni berdi. Shundan so'ng, "Pedagogika" kafedrasida katta o'qituvchisi M.Alieva I.Jo'raevga shunday savol bilan murojaat etdi: "Domla, kechirasiz, sizningcha, metodika va texnologiyaning bir-biridan farqi nimada?". I.Jo'raev qisqa qilib "Metodika o'rgatadi, texnologiya faollashtiradi" degan javobni berdi. M.Alieva javobni tushunmasdan hayron bo'lib, indamay qo'ydi. Olim unga "Nega siz javobdan qoniqmadingizmi?" savol nazari bilan qaradi, M.Alieva esa indamadi. Kafedra o'qituvchisi G.Qo'ldosheva M.Alievaga "Nimaga tushunmaysiz, domla aytmoqchilarki, o'qitish metodikasi talabalarni faollashtira olmaydi, texnologiya esa talim oluvchini faollashtirib, o'yin asosida mashg'ulotlarni qiziqarli o'tishini taminlaydi" deb tushuntirgan bo'ldi.

I.Jo'raev o'z chiqishini yakunlagach, moderator so'zni pedagogika fanlari doktori, professor D.Abdullaevaga berdi va "zamonaviy pedagogik texnologiyalar" haqida malumot berishni so'radi. D.Abdullaeva bugungi kunda ko'plab zamonaviy pedagogik texnologiyalar mavjudligi, ularga Aqliy hujum, B-B-B, kaskad, pinbord, klaster, zigzag, tarmoqlar, o'yinli texnologiyalar kabilar borligini aytib, ularga qisqa-qisqa izoh berdi. D.Abdullaeva so'zini yakunlagach, doqent A.Ikromov unga quyidagi savol bilan murojaat etdi: "Ustoz, meni bir savol ko'p vaqtdan beri qiziqtiradi: "Texnologiya bilan interaktiv metod" tushunchasi bir narsami? Har doim ularni aralashtirib qo'llayveramiz, shu to'g'rimi?". D.Abdullaeva savolga quyidagicha javob berdi: "Siz manimcha, savolni man yuqorida bir nechta texnologiyani sanab o'tganimdan kelib chiqib beryapsiz. Ularni "texnologiya" deb aytish ham, "interfaol metodlar" deb nomlash ham mumkin" degan javobni berdi. Javobni eshitgach, A.Ikromov "unda birini qo'llayversak bo'lmaydimi?" degan savol nazari bilan qaradi. Unga javoban olima "Istaganigizni ishlatavering" deb javob berdi. Shu bilan D.Abdullaeva ham chiqishini yakunladi.

Uchinchi bo'lib so'z navbati L.Vasiljonovaga berildi. U “Nutq so'zlashdan avval men sizlarni qiziqtirgan savollarni eshitmoqchiman” degan fikr bildirdi. Shunda qolganlar indamasdan turganda, A.Ikromov “man savol bersam, maylimi?” deb ruxsat so'radi. Bering, degan ishora qilingach, u “Men hali professor D.Abdullaevaga ham shunga o'xshash savolni bergandim, sizning ham fikringizni bilmoqchiman: Metod bilan texnologiyani bir-biridan nima farqi bor? Sizni pedagogik texnologiyaga doir kitobingizda keys-stadi, o'quv loyihasi haqida malumot berilganda, ularga nisbatan ham metod, ham texnologiya so'zlari qo'llanilavergan. O'zi bu tushunchalarni qanday qo'llash o'rinli bo'ladi?”. L.Vasiljonova: “Menimcha, siz D.Abdullaevaning fikrlariga yaxshi etibor qaratmabsiz, ular bu tushunchalarning ikalasini ham qo'llayverish mumkin, deb aytdilar” degan javobni berdi. Hamma miyig'ida kulib, bir-biriga qarab qo'ydi.

A.Ikromov yana savol berishga ruxsat so'radi. Uzoq so'ragan holda, L.Vasiljonovaga “Siz kitobingizda grafik organayzerlarni “talim vositalari” deb bergansiz. Men bu fikrga qo'shilmadim. Chunki biz didaktik vositalar deganda kitob, chizma, rasm, jadval, nutq, laboratoriya jihozlari, o'quv qurollarini tushunamiz. Grafik organayzerlarni vosita deb aytish to'g'rimi?” L.Vasiljonova savolga quyidagicha javob berdi: “Grafik organayzerlar tuzilishiga ko'ra chizma, jadval ko'rinishiga ega bo'lganligi uchun ularni “vosita” deb talqin qilganmiz”. So'ng A.Ikromovga savol bilan murojaat qildi: “Siz grafik organayzerlarni qanday xarakterga ega deb hisoblaysiz?” A.Ikromov “Grafik organayzerlarni vosita emas, metod deb qo'llash o'rinli bo'ladi” degan javobni berdi. Unga javoban L.Vasiljonova “Siz istasangiz shunday qo'llashingiz mumkin” deb aytdi.

L.Vasiljonova chiqishini tugallaganidan so'ng, moderator umumiy tarzda seminar-treningga yakun yasadi. Kafedra-o'qituvchilarining ko'pchiligi seminar-trening davomida zamonaviy sharoitda keng qo'llanilayotgan tushunchalar haqida aniq malumot olishmaganini o'zaro bir-birlariga sekin-sekin shivirlab qo'yishdi...

Siz nima deb o'ylaysiz, seminar-trening oldiga qo'yilgan maqsad to'liq amalga oshdimi? Zamonaviy talim-tarbiya jarayoni bilan bog'liq holda qo'llanilayotgan tushunchalarning mohiyatijetarlicha aniqlashtirildimi? Siz

mazkur tushunchalarni qanday izohlagan bo'lar edingiz? Seminar-treningda qaysi tushuncha mohiyatiga umuman etibor qaratilmadi? “Metodika” va “texnologiya” tushunchalarini farqlashga doir I.Jo'raev tomonidan berilgan javobga siz qanday munosabat bildirasiz? D.Abdullaevaning o'z nutqida Aqliy hujum, B-B-B, kaskad, pinbord kabilarni texnologiya deb ishlatishi to'g'rimi? L.Vasiljonovanning “metod” va “texnologiya” tushunchalariga nisbatan aytan fikrini qanday baholaysiz? Grafik organayzerlarni “talim vositasi”mi yoki “metod” sifatida talqin etish maqsadga muvofiqmi?[17,19]

Keysyechimi uchun taklif etilgan g'oyalar taqdimoti uchun chizma namunasi

2.8-jadval

Muammo (asosiyvakichikmuammolar)	Echim	Natija

Biz nimaga bu keysni keltirdik, bu keys orqali keys ishlashni tushuntirish va amaliyotga tadbiq qilish maqsadida

Materiklarning iqlimi, ichki suvlari, tabiat zonalarini o'rganishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishda keys taklif qilamiz.

Faktlar majmuidan iborat bo'lgan keys

Keys: Materiklarning iqlimi, ichki suvlari, tabiat zonolari

O'qituvchi materiklar iqlimi, ichki suvlari, tabiat zonolari mavzusini Avstraliya materigi misolida faktlar majmuidan iborat manbani berdi;

Iqlim xususiyatlari.Avstraliyaning geografik o'rni, havo massalari, okean oqimiari, relyefi materik iqlimining o'ziga xos xususiyat-larini shakllantirgan. Shunga ko'ra, Avstraliya Yerimizdagi eng qurg'oqchil materik hisoblanadi. Uning hududida Afrikaga nisbatan besh baravar kam yog'in yog'adi. Bu yerda quruq tropik iqlim tipi hukmronlik qiladi. Shuning uchun materikning markaziy va g'arbiy qismlarida yog'ingarchilik juda kam bo'ladi. Okeandan esadigan janubi-sharqiy passatlar Katta Suvayirg'ich tizmasining sharqiy yonbag'irlariga yog'in keltiradi.

Ichki suvlari. Materikning katta qismi quruq tropik iqlim mintaqasida joylashganligidan daryolar oz. Avstraliyaning 60% maydoni oqmas ichki berk havzaga, 7% i Tinch okean va 33% i Hind okeani havzasiga qaraydi. Daryolarning quruq o'zanlari kriklar deb ataladi. Bu daryolarda suv ahyon-ahyonda yog'adigan yomg'irlardan keyin paydo bo'ladi va tez orada qurib qoladi. Yil bo'yi sersuv bo'lib oqadigan daryolar Avstraliyaning sharqiy qismida mavjud. Daryolar yomg'irdan va yerosti suvlaridan to'yinadi. Avstraliyaning eng katta daryo tizimi –Murrey va uning yirik irmog'i Darlingdan iborat. Avstraliyada kichik oqmas ko'llar ko'p. Ko'llar ichida eng yirigi Eyr ko'li, uning maydoni suv bilan to'lgan paytda 15ming. Kv km ga yetadi.

Tabiat zonalari. Avstraliya maydoniga ko'ra qiyoslansa, cho'l zonasi egallagan hududlar bo'yicha birinchi, o'rmonlar maydoniga ko'ra oxirgi o'rinni egallaydi. Materikda quyidagi tabiat zonalari tarkib topgan. Fasliy nam doimiy yashil o'rmonlar materikning shimoli-sharqiy sohillarini egallaydi. Daraxtlardan palma, lavr, daraxtsimon paporotniklar, evkaliptlar, ko'p uchraydi. Tropik o'rmonlarda xaltali ayiq - koala, lirodum, kenguru, xaltali iblis, o'rdakburun, yexidna, rang-barang to'tilar, qushlar yashaydi. Savannalar materikning shimoliy, sharqiy qismlarda katta maydonlarni egallaydi. Savannalarda siyrak o'rmonlar (evkalipt, akatsiya, kazuara, butilkasimon daraxtlar), o't hamda buta o'simliklari mavjud. Bu zonada kenguru, vambat (xaltali kemiruvchi), xaltali chumolixo'r, suv havzalarida qushlar ko'p.

Cho'l zonasi materikning ichki qismida kata hududlarni egallaydi. Bu zonda efemer o'simliklar bilan birga doimiy yashil butazorlar (asosan, evkalipt, akatsiyadan iborat) o'tib bo'lmas changalzorlarni – skreblarni hosil qiladi. Bu zonada gigant kenguru, vambatlar, yexidna, dingo iti, emu tuya qushi, zaharli ilonlar mali –incubator tovug'i va kemiruvchilar yashaydi.

Eng janubdagi subtropik iqlim mintaqasidagi tabiat zonalari hududiy hususiyatga ega. Materikning g'arbiy qismida qattiq bargli o'rmonlar va butalar (asosan, evkaliptlar), janubi-sharqida evkalipt o'rmonlar, undan janubda doimiy yashil dub(eman)lar o'sadi. Avstraliya alo tog'larida

balandlik mintaqalari mavjud. Tog' etagidagi o'rmonlar, butazorlar asta-sekin tog' tepasida alp o'tloqlari bilan almashinadi. Tasmaniya aralash o'rmonlar bilan qoplangan.

Siz nima deb o'ylaysiz, Avstraliya materigining iqlimi natijasida uning ichki suvlari va tabiat zonalari shakllanishi uchun tasiri to'liq yoritib berildimi. Buyerda berilgan uchta geografik obektga doir manba bir biriga bog'liq holda yuzaga kelgani va shakllangani to'liq yoritildimi. [20.67-80b]

Keysyechimi uchun taklif etilgan g'oyalar taqdimoti uchun chizma namunasi

2.9-jadval

Muammo (asosiyvakichikmuammolar)	Yechim	Natija
Muammo: Avstraliya iqlimi natijasida ichki suvlari va tabiat zonalari shakllanadimi. Sabab, oqibat	Yechim uchun uning geografik o'rnini va relefini kiritish maqsadga muvofiqdir	Iqlimiy xususiyat, geografik o'rin, relef natijasida ichki suvlar, tabiat zonalari shakllanishiga sabab bo'ladi.

Biz bu mavzu asosida faqat keysdan foydalanish usullarini ko'rsatishga harakat qildik.

Demak, keysning o'ziga xosliklari:

1. Izlanishga doir faoliyatning mavjud bo'lishi.
2. Jamoaviy va guruhlarda o'qitish.
3. Individual, guruhli va jamoaviy ish shakllari integratsiyasi.
4. Xil-xil o'quv loyihalarini ishlab chiqish.

5. Muvaffaqiyatga erishish uchun o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini rag'batlantirishdan iboratdir.

Avstraliya iqlimi, ichki suvlari, tabiat zonalarini o'rganishda innovatsion va pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullari bo'yicha dars ishlanmasi.

Darsning mavzusi: Iqlimi, ichki suvlari, tabiat zonalari
Darsning ta'limiy maqsadi: O'quvchilarga Avstraliyaning iqlimi, ichki suvlari, tabiat zonalari haqida bilimlar berish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: O'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va milliy g'urur-iftixor tuyg'usini shakllantirish, ahloqiy va estetik tarbiya berish.

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: O'quvchilarning ilmiy dunyo qarashini kengaytirish, atlas va karta bilan ishlash ko'nikmalarini, nutq va muomala madaniyatini rivojlantirish.

Dars tipi: Aralash. Dars turi: Interfaol. Dars o'tish metod va usullari: Kichik guruhlarda ishlash, "Aqliy hujum". "Kim chaqqon", "Moychechak" metodi, "Klaster", amaliy ish, guruhlarda ishlash, diqqatni tortish, xarita bilan ishlash.

Darsning jihozi: Materik va okeanlar tabiiy geografiyasi. (Darslik). Materik va okeanlarning tabiiy xaritasi. Atlas, Yarim sharlar tabiiy xaritasi. 6-sinf geografiya o'qitish metodikasi; Geografiyaga oid albom va tarqatma materiallar;

Texnik vositalar: Kompyuter, multimedia, slaydlar.

Dars rejasi: O'qituvchining kirish so'zi. (3 daqiqa), Guruhlarga bo'linish. (2 daqiqa), "Kim ko'p biladi" o'yini. (5 daqiqa), Tezkor savollar. (8 daqiqa), Slaydlar yordamida yangi mavzu bayoni. (8 daqiqa), E'tiborni jamlash (6 daqiqa), Yangi mavzuni mustahkamlash. Yozuvsiz xarita bilan ishlash (7 daqiqa), O'quvchilarni baholash. (4 daqiqa), Uy vazifa berish. (2 daqiqa)

Dars jihozi: Dunyoning tabiiy karitasi, globus, darslik, 6-sinf atlas.

Darsni o'tish usuli: suhbat, tushuntirish, og'zaki bayon qilish, savol-javob, hikoya.

Darsning borishi: I. Tashkiliy qism: salomlashish; davomatni aniqlash; sinf tozaligini tekshirish. Rag'bat uchun kartochkalar rangli yulduzlar. Kimning qizil yulduzchasi ko'p bo'lsa shu guruh uchun 1-o'rin, yashil yulduzcha uchun 2-o'rin, sariq kartochka uchun 3-o'rin bilan taqdirlanadi.



G'oliblar



epchillar



quvnoqlar

2.3-rasm. Rag'bat uchun kartochkalar


II. Uy vazifasini so'rash:

1. Avstraliya" so'zi qanday ma'noni anglatadi?
2. O'rganishda kimlar ishtirok etishgan?
3. Relyef tuzilishiga ko'ra necha qismga bo'linadi?
4. Qaysi qazilmalar bo'yicha dunyoda yetakchi?

III. Yangi mavzu bayoni: Reja:

1. Avstraliyaning iqlimi, ichki suvlari.
2. Avstraliyaning tabiat zonalari.


Iqlim xususiyatlari. Avstraliyaning geografik o'rni, havo massalari, okean oqimiari, relyefi materik iqlimining o'ziga xos xususiyat-larini shakllantirgan. Shunga ko'ra, Avstraliya Yerimizdagi eng qurg'oqchil materik hisoblanadi.



2.4-rasm. "Moychechak" metodi sxemasi

Uning hududida Afrikaga nisbatan besh baravar kam yog'in yog'adi. Bu yerda quruq tropik iqlim tipi hukmronlik qiladi. Shuning uchun materikning markaziy va g'arbiy qismlarida yog'ingarchilik juda kam bo'ladi. Okeandan

esadigan janubi-sharqiy passatlar Katta Suvayirg'ich tizmasining sharqiy yonbag'irlariga yog'in keltiradi.



2.5.-rasm. Avstraliya va Okeaniya.(Xarita darslikning 70-betidan olingan)

Ichki suvlari. Materikning katta qismi quruq tropik iqlim mintaqasida joylashganligidan daryolar oz. Avstraliyaning 60% maydoni oqmas ichki berk havzaga, 7% i Tinch okean va 33% i Hind okeani havzasiga qaraydi. Daryolarning quruq o'zanlari krikklar deb ataladi. Bu daryolarda suv ahyon-ahyonda yog'adigan yomg'irlardan keyin paydo bo'ladi va tez orada qurib qoladi. Yil bo'yi sersuv bo'lib oqadigan daryolar Avstraliyaning sharqiy qismida mavjud. Daryolar yomg'irdan va yerosti suvlaridan to'yinadi. Avstraliyaning eng katta daryo tizimi –Murrey va uning yirik irmog'i Darlingdan iborat. Avstraliyada kichik oqmas ko'llar ko'p. Ko'llar ichida eng yirigi Eyr ko'li, uning maydoni suv bilan to'lgan paytda 15ming. Kv km ga yetadi.



2.6-rasm. Murrey daryosi 2.7-rasm. Darling daryosi




2.8-rasm. Eyr ko'li 2.9-rasm. Kuper-krik daryosi

Tabiat zonalari. Avstraliya maydoniga ko'ra qiyoslansa, cho'l zonasi egallagan hududlar bo'yicha birinchi, o'rmonlar maydoniga ko'ra oxirgi o'rinni egallaydi. Materikda quyidagi tabiat zonalari tarkib topgan. Fasliy nam doimiy yashil o'rmonlar materikning shimoli-sharqiy sohillarini egallaydi. Daraxtlardan palma, lavr, daraxtsimon paporotniklar, evkaliptlar, ko'p uchraydi. Tropik o'rmonlarda xaltali ayiq - koala, lirodum, kenguru, xaltali iblis, o'rdakburun, yexidna, rang-barang to'tilar, qushlar yashaydi. Savannalar materikning shimoliy, sharqiy qismlarda katta maydonlarni egallaydi. Savannalarda siyrak o'rmonlar (evkalipt, akatsiya, kazuara, butilkasimon daraxtlar), o't hamda buta o'simliklari mavjud. Bu zonada kenguru, vambat (xaltali kemiruvchi), xaltali chumolixo'r, suv havzalarida qushlar ko'p.

Cho'l zonasi materikning ichki qismida kata hududlarni egallaydi. Bu zonda efemer o'simliklar bilan birga doimiy yashil butazorlar (asosan, evkalipt, akatsiyadan iborat) o'tib bo'lmas changalzorlarni – skreblarni hosil

qiladi. Bu zonada gigant kenguru, vambatlar, yexidna, dingo iti, emu tuyaqushi, zaharli ilonlar mali – inkubator tovug'i va kemiruvchilar yashaydi.



2.10-rasm. Avstraliya tabiat zonalari bo'yicha "Klaster" organayzeri.



2.11-rasm. Yexidna. 2.12-rasm. Xaltali iblis.



2.13-rasm. O'rdakburun 2.14-Rasm. Koala

Eng janubdagi subtropik iqlim mintaqasidagi tabiat zonalari hududiy hususiyatga ega. Materikning g'arbiy qismida qattiq bargli o'rmonlar va butalar (asosan, evkaliptlar), janubi-sharqida evkalipt o'rmonlar, undan janubda doimiy yashil dub(eman)lar o'sadi. Avstraliya alo tog'larida balandlik mintaqalari mavjud. Tog' etagidagi o'rmonlar, butazorlar asta-sekin tog' tepasida alp o'tloqlari bilan almashinadi. Tasmaniya aralash o'rmonlar bilan qoplangan.



2.15-rasm.Dingo iti.



2.16-rasm.Emu tuyaqushi.



2.17-rasm. Vambatlar.



2.18-rasm. Kenguru

Avstraliyada 21 mln aholi yashaydi (2012 y). avstraliyaning tub joy aholisi – aborijenlar avstroloid-negroid irqiga mansub bo'lib, ularning terisi to'q jigarrang, sochlari to'lqinsimon, qora, yapoloqburun bo'ladi. Olimlarning etnografik ta'rificha, ular bu yerga janubi-sharqiy osiyodan kelgan.[20.67-70b]

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

1. Avstraliya qit'asida qanday iqlim mintaqalari shakllangan?
2. Krik va skreb nima?
3. Afrika va Avstraliya tabiat zonalarining o'xshash va farqlari nimalardan iborat?
4. Xaltali hayvonlar haqida nimalarni bilasiz?

V. Darsni yakunlash va baholash: o'quvchilar bilimni nazorat qilish, darsda faol qatnashgan o'quvchilarni baholash va baholarni izohlash.

VI. Uygavazifa: Mavzuni o'qib, savollarga javob yozish.

Shuningdek

“Avstraliyaninimauchunochiqosmontagidagiqo'riqxonadeydilar”

Harbiro'quvchiiijodiyishqilishilozim. O'quvchilarniiijodiyishlariko'rgazmasiqilib. Avstraliyanibilishgaqiziqishiniuyg'otamiz.

Menbitiruvmalakaviyishiniyozishjarayonidataajribamdqo'llagnaijodiyi sho'quvchilarqiziqishiniuyg'otib, ulardayaxshitaassurotqoldirdi.

2.3.Okeanlarni o'rganishda innovatsion va pedagogik texnologiyalarni qo'llash

Okeanlar bilan materiklar orasida modda va enyergiya almashinuvi. Yuqorida qayd qilinganidek, Yer sharida bir-biridan sifat jihatidan farq qiluvchi ikkita yuzamateriklar va okeanlar mavjud. Bular o'zaro har tomonlama va murakkab ravishda bog'langan. Bu bog'lanishning eng muhim belgisi ular o'rtasidagi modda va energiya almashinuvidir. Bu almashinuvning quyidagi asosiy xillari mavjud:

1. Okeanlardan bug'langan suvning materiklarga kelishi va materiklardan oqar suvlar hamda yer osti suvlari tarzida yana okeanlarga oqib ketishi.

2. Issiqlikning almashinishi; okeanlar Yer yuzasining uchdan ikki qismini egallab yotishi sababli ular Quyosh radiatsiyasining asosiy qismini olib, atmogidrosferadagi oqimlar tufayli bu issiqlikni Yer sharida qayta taqsimlaydi. Bu jarayonlar iqlim hosil qiluvchi jarayonlardir.

3. Mineral moddalar, shu jumladan tuz almashinuvi. Mineral moddalar geosinklinallarning rivojlanishi jarayonida dengizlar transgressiyasi (bosib kelishi) natijasida quruqliklarga o'tadi. Tuzlar yana okeanlarga yer usti va yer osti suvlari oqimi bilan qaytadi.

4. Yerdagi organik dunyo orqali okeanlar bilan materiklar o'rtasida nihoyatda murakkab almashinuv ro'y beradi.

Dars ishlanmamiz orqali o'quvchilarga bu manbalar juda yaxshi tushuntiriladi.

Alantika okeanimavzusining texnologik xaritasi va o'tkazilish ishlanmasi

2.10-jadval

Mavzu	Alantika okeani.
Maqsad, vazifalar	Maqsad: O'quvchilarda yangi atama va tushunchlarni shakllantirish; Atlanlantika okeani tabiiy-geografik o'rni xususiyatlari haqida tasavvurlar hosil qilish; o'quvchilarda geografik o'rin ko'nikmasini shakllantirishda davom etish; Atlantika okeaniga kiruvchi dengizni xaritadan topa olish ko'nikmalarini mashq qilish; Okeanni tadqiq etgan sayyohlar haqida ma'lumotlar berish. Geografik bilimlarni amaliyotda qo'llashga doir kompetensiyalarni shakllantirish.
O'quv jarayonining mazmuni	Vazifalar: O'quvchilarda mavzu asosida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, geografik atlas va xaritalar bilan ishlashga qiziqish o'yg'otish. O'quvchilarning savol-javob, xarita bilan ishlash (amaliy mashg'ulot) orqali yangi mavzuni qay darajada o'zlashtirilganligi nazorat qilinadi.
O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi	Uslub: "Aqliy hujum", juftlikda ishlash("B.B.B"), "Guruhlar bilan ishlash". Shakl: Savol-javob, jamoa va yakka tartibda ishlash, amaliy mashg'ulot. Vosita: Dunyo tabiiy xaritasi, 6-sinf o'quv atlas, yozuvsiz xarita, 6-sinf darsligi, "Kompyuter Osiyo" IT tomonidan yaratilgan o'quv filmi, tarqatma savollar. Usul: Tayyor yozma materiallar, Akvarium, mavzuga oid xaritalar asosida. Nazorat: Savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish. Baholash: Rag'batlantirish, 5 ball tizim asosida baholash.
Kutilayotgan natijalar	O'qituvchi: Mavzu belgilangan vaqt ichida barcha o'quvchilar tomonidan o'zlashtiriladi. O'quvchilarning darsda faolligi oshadi. Ularda fanga nisbatan qiziqish o'yg'onadi. Amaliy mashg'ulot davomida barcha o'quvchilar baholanadi. O'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishadi. O'quvchilar og'zaki va amaliy mashg'ulotlarni mustaqil bajaradilar, boshqalarga yetkazish, savol va javob berishga o'rgatiladi. O'quvchi:

	Mavzu yuzasidan yangi bilimga ega bo‘ladilar. Guruhlar bilan ishlashni o‘rganadilar, eslab qolish, ayta olish, ko‘rsata olish ko‘nikma va malakalarga ega bo‘ladilar
Kutilayotgan natijalar Kelgusi rejalar (tahlil, o‘zgarishlar)	O‘qituvchi: Yangi pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtiradi va darsda tatbiq etib, takomillashtirishga erishadi. O‘z ustida ishlaydi. Mavzuni hayotiy voqieyalar bilan bog‘laydi va solishtiradi. O‘quvchi: Mavzu yuzasidan berilgan topshiriq ustida mustaqil ishlashi o‘rganadi. O‘z fikrini ravon bayon eta oladi. Guruh fikrini tahlil qilib, bir yechimga kelish malakasini hosil qiladi. Yangi mavzuga oid qo‘shimcha materiallar topishga harakat qiladi.

Mashg‘ulotning borishi

Dars rejasi:

1. O‘qituvchining kirish so‘zi. (2 daqiqa)
2. Guruhlarga bo‘linib ishlashni tashkillashtirish. (2 daqiqa)
3. Guruh a‘zolariga juftlikda ishlash uchun topshiriq berish. (6 daqiqa)
4. Yangi mavzu bayoni (7 daqiqa)
5. Yozuvsiz xaritaga Atlantika okeaniga kiruvchi dengizlarni tushirish. (8 daqiqa)
6. Guruhlar taqdimoti (10 daqiqa)
7. Mavzuni mustahkamlash (5 daqiqa)
8. O‘quvchilarni baholash (3 daqiqa)
9. Uyga vazifa. (2 daqiqa)

Darsning borishi:

1. O‘qituvchining kirish so‘zi (1 daqiqa).

Darsning tashkil etilishi:

- a) salomlashish, davomatni aniqlash;
- b) o‘quvchilarni darsga hozirlab, jonli muhit yaratish;

2. Guruhlarga bo‘linish (2 daqiqa).

O‘quvchilar tanlagan emblemalari orqali 5 ta guruhga bo‘linib, joylariga o‘tirishadi (emblemalar o‘qituvchi tomonidan oldindan tayyorlab qo‘yiladi).

I-guruh. “Bermud”

II-guruh. “Karib

III-guruh. “ O’rta Yer”

IV-guruh. “Adriatika”

V-guruh. “Qora dengiz”

Guruh a'zolari ichidan juftliklarga "Bilaman, Bilishni istayman, Bilib oldim" jadvali beriladi.

O'quvchilar Atlantika okeani haqida bilgan va bilishni istaganlarni yozadilar.

Juftliklar ishi guruhlarda ko'rib chiqiladi va guruh a'zolaridan bir o'quvchi u haqda bayon qiladi.

"BBB jadval"

2.11-jadval

BILAMAN	BILISHNI ISTAYMAN	BILIB OLDIM

Yangi mavzu bayoni:

Atlantika okeanining tavsifi.

Atlantika okeani tarkibiga kiruvchi dengizlar.

Atlantika okeani – Barchayarim sharlarda joylashgan, Buyuk geografik kashfiyotlar shu okeandan boshlangan. Qirg'oqsiz dengizi bor, meridional yo'nalgan eng uzun o'rta okean tizmasi bor, eng yirik port shaharlari bor, ichki dengizlari eng ko'p, eng sersuv, eng uzun daryolari shu okeanga quyiladi, eng baland qalqish ham shu okeanda kuzatiladi, materiklar dreyfi gipotezasiga asos bo'lgan, dengiz transportida dunyoda birinchi o'rinda turadi. O'qituvchi Atlantika okeanining geografik o'rni, o'rganilish tarixi, geologik tuzilishi va reliefi, Iqlimi va oqimlari, Okeanning tabiat mintaqalari, Inson xo'jalik faoliyati to'g'risida bayon qildi.[20.62 b]

Darslik va atlas bilan ishlash (8 daqiqa)

Har bir guruhga alohida topshiriq beriladi.

1-guruhga: Atalantika okeanining asosiy xususiyatlarini ayting.

2-guruhga: Atalantika okeanining geografik o'rniga ta'rif bering.

3-guruhga: Atalantika okeanining tekshirilish tarixi haqida nimalarni bilasiz?

4-guruhga: Atalantika okeanining iqlim mintaqalarini sanab bering.

5-guruhga: Atalantika okeanining da ayting?

5 daqiqadan so'ng guruh ishlari taqdimoti tinglanadi.

Guruh a'zolari boshqa belgilar orqali yangi guruhlarga ajratiladi.

Har bir guruhga dengizlar beriladi, ular yozuvsiz xaritaga shartli belgilar orqali belgilaydilar.

1-guruhga :Atlantik okeaniga kiruvchi quyidagi dengizlarni yozuvsiz xaritaga tushiring.
(Karib, O'rta Yer, Ligur, Qora dengiz, Boltika dengizi).

2-guruhga: Atlantika okeaniga kiruvchi botiqlarni yozuvsiz xaritaga tushiring.

3-guruhga: Atlantika okeaniga quyuvchi Shimoliy Amerika materigidaryolarini yozuvsiz xaritaga tushiring.

4-guruhga: Atlantika okeaniga quyuvchi Janubiy Amerika materigidaryolarini yozuvsiz xaritaga tushiring

5-guruhga: Atlantika okeaniga quyuvchi Yevrosiyo materigidaryolarini yozuvsiz xaritaga tushiring

O'quvchilarning yangi mavzu bo'yicha olgan bilimlari tekshirib ko'riladi:

1-guruhga : Atlantika okeanidagi dengizlar maydoni qanchaga teng?

Javob:

2-guruhga: Atlantika okeanida qanchaga yaqin dengiz bor?

Javob:

3-guruhga: Atlantika okeanidagi xos xususiyatlarni ayting.

Javob: **4-guruhga:** Atlantika okeanidagi iliq va sovuq oqimlarni ayting?

Javob :

5-guruhga: Atlantika okeaning xo'jalikdagi ahamiyatini ayting?

Javob:

Yuqoridagi berilgan topshiriqlar bo'yicha rag'bat kartochkalari berib boriladi va dars yakunida ular sanaladi. Shunga ko'ra o'quvchilar baholanadilar.

Dars boshida berilgan jadvaldagi "Bilib oldim" bo'lagi to'ldiriladi.

O'qituvchi mavzuni mustahkamlashda mavzu yuzasidan yangi so'z va atamalardan tuzilgan savollarni "Akvarium"ga solib qo'yadi.

Guruhlar tomonidan "Akvarium" dan yangi so'zlar, atamalar yozilgan baliqchalar olinadi.

Ular baliqchalardagi so'zlarga zudlik bilan javob berishlari lozim. Masalan:
(Adriatika, Puerto Riko, Bermud uchburchagi, O'rta Yer, Qora, Marmar)

Uyga vazifa: Mavzuni o'qib kelish. Atlasdan Atlantika okeaniyaga kiruvchi dengiz va orollarni yozuvsiz xaritaga tushirishni tugallash. Atlantika okeani haqida qiziqarli ma'lumotlar to'plash.

TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH BO'YICHA O'TKAZILGAN TAJIRIBA-SINOV ISHLARI VA NATIJALARI

3.1. 6-sinf materiklar va okeanlar tabiiy geografiya kursida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash bo'yicha tajriba-sinov ishlari

Ta'lim texnologiyalari va innovatsion pedagogik texnologiyaasosida dars tashkil etish-samaradorlik garovi. Innovatsion pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi - o'qituvchi va o'quvchining belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga xamkorlikda erishishlari ularning tanlagan texnologiyasiga bog'liq. O'qitish jarayonida, maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir ta'lim texnologiyasi o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa, o'quv jarayonida o'quvchilar mustaqil fikrlab, ijodiy izlanib, tahlil etib, o'zlari xulosa qila olsalar, o'zlariga, guruhga, guruh esa ularga baho bera olsa, o'qituvchi esa ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, ana shu-o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi. Harbirdars, mavzu, o'quvpredmetiningo'zigaxostexnologiyasibor. [26]

O'qituvchi va o'quvchining maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan bo'lib, bunda o'quvchilarning bilim saviyasi, guruh xarakteri, sharoitga qarab, ishlatiladigan texnologiya tanlanadi. Masalan, natijaga erishish uchun balki, kompyuter bilan ishlash lozimdir, balki geografiya xarita bilan ishlash, film (yoki tarqatma material, chizma va plakat, axborot texnologiyasi, turli adabiyotlar) kerak bo'lishi mumkin. Bu jarayonda o'qituvchi o'quv predmetini o'ziga xos tomonini, joy va sharoitni, eng asosiysi, o'quvchilarning imkoniyati va ehtiyojini, hamkorlikdagi faoliyatini tashkil eta olishini hisobga olishi kerak. Shundagina kerakli kafolatlangan natijaga erishish mumkin. Qisqacha aytganda, o'quvchini darsning markaziga olib chiqish kerak.

Hozirgi

kuntalablaridankelibchiqqanholdafanningo'qitilishihamtakomillashtirildi. Bu borada amalga oshirilayotgan ishlarni o'qituvchilarga yetkazish, ta'lim sifat samaradorligini oshirish, o'quvchilarning olgan nazariy bilimlari asosida ularda ko'nikma va malakalarni shakllantirish maqsadida mavzularga doir amaliy mashg'ulotlar, geografik o'quv atlasi va xaritalar bilan ishlashni yo'lga qo'yish, darsdan tashqari to'g'arak mashg'ulotlarini yanada jonlantirish uchun lozim.[13,14]

Geografiyaning o'qitishda qo'llaniladigan metodlar, usullar va vositalarni dars mavzulariga mos ravishda tanlay olish, fanning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda har birini amaliyotga tatbiq etish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqilishi, o'qituvchilarning ijodkorligi asosida o'quv jarayonga yondoshishlari uchun yo'nalishlar berish; Ta'lim-tarbiya sifatini oshirishda, o'quvchilarning olayotgan bilimlarini mustaxkamlashda mamlakatimiz ta'lim tizimida xar yili o'tkaziladigan "Fan olimpiadasi" va "Bilimlar bellashuvi" musobaqalarining ahamiyati katta bo'lib, bunda umum ta'lim maktablarida Davlat Ta'lim Standartlarida belgilangan talablarning bajarilishi, o'quvchilar bilimlaridagi bo'shliqlar ham taxlil qilinadi. 2016-2017 o'quv yilida umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarining Davlat ta'lim standartlarini o'zlashtirishi bo'yicha geografiya fanidan o'tkazilgan "Bilimlar bellashuvi" va uning asosida olib borilgan monitoring natijalariga ko'ra o'quvchilar bilimida bo'shliqlar aniqlangan. Jumladan, 6-sinfo'quvchilari atmosfera mavzusida, Dunyo okeanlari, uning qismlari va okean tubi relyefini aniqlashda, Erning iqlim mintaqalari mavzulariga, Afrikaning ichki suvlari, Afrikaning geografik o'rni va o'rganilish tarixiga, Dunyo okeanlari va ulardan foydalanishga, ularni muhofaza qilishga oid savollarga javob berishda qiynalganlar. [9]

O'quvchilar bilimidagi ushbu bo'shliqlarni to'ldirish uchun o'qituvchilarga mavzular yuzasidan dars davomida ko'proq o'quvchilarni xarita va o'quv atlasi bilan ishlashlarini yo'lga qo'yish, olgan bilimlari, hosil bo'lgan ko'nikma va malakalari asosida quyidagi mavzular bo'yicha kichik guruhlarda amaliy

maslh'ulotlar o'tkazish tavsiya etiladi: "Materiklarning geologik tuzilishi, foydali qazilmalari. "Relefi", "Materiklarning ichki suvlari va suv boyliklari" mavzulari yuzasidan ochiq darslarni tashkil etishda zamonaviy usullarni qo'llash: Umum ta'lim maktablarida fanlarning o'qitilishi va samaradorligini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining tomonidan "Fan oyliklarini" o'tkazishni takomillashtirish to'g'risida"gi buyrug'iga asosan "Geografiya fan oyligi" sentyabr oyidan boshlanadi. Geografiya fan oyligini yuqori saviyada tashkil etish va o'tkazishni ta'minlash, o'quv metodik ishlarni amaliyotga tadbiq etishni yaxshilash, iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashni yanada takomillashtirish maqsadida chora-tadbirlar rejasini belgilab olish, metodik tavsiyalar, ilg'or pedagogik texnologiyalarning turli metod va usullarini qo'llab o'zlashtirilishi qiyin bo'lgan mavzular yuzasidan dars ishlanmalar tayyorlashni va ularni amalda qo'llashni to'g'ri yo'lga qo'yish haqidagi yo'nalishlarni berilishi maqsadga muvofiqdir.

Biz yuqoridagi muammolarni biroz bo'lsayam hal qilish maqsadida, 6-sinf materiklar va okeanlar tabiiy geografiya kursida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalangan tajriba-sinov ishlarini amalga oshirdik. Tajriba sinov ishlari jarayoni Urganch shahridagi 9-sonli maktabda pedagogik amaliyot davrida o'tkazdik.

3.2. 6-sinf materiklar va okeanlar tabiiy geografiya kursida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash asosida o'tkazilgan tajriba-sinov natijalari

Pedagogik jarayon sifatida adabiy ta'lim to'laqonli birtizim deb qaraladigan bo'lsa, uni tashkil etuvchi unsurlar quyidagilardir: ta'lim maqsadi, kutilayotgan natijalar, ta'lim beruvchi - o'qituvchi va bilim oluvchi - o'quvchi, ta'limtamoyillari, ta'limmazmuni, metodi, shakli, vositalari, nazorat va baholash mexanizmlari. Ta'lim zamonaviy usullar asosida tashkil etilganda, uning tarkibiy tuzilmasidan birortasi e'tibordan chetda qolsa yoki noto'g'ri tanlangan bo'lsa,

tizim ishlamaydi, bu esa ta'lim jarayoni oldiga qo'yilgan maqsadga erishmaslik ehtimolini yuzaga keltiradi. [27]

Ta'limberishjarayonimurakkab, ziddiyatlikechimbo'lib,
o'qituvchidankuchlibilim, kasbiymahorat,
tashkilotchilikqobiliyativinimsizizlanishnitalabetadi. Har bir o'qituvchining o'z oldiga qo'ygan didaktik maqsadiga erisha olishi uning kasbiy mahoratiga, samara beradigan ta'lim shaklini tanlay olishiga, ta'lim vositalaridan unumli foydalana bilishiga, eng muhimi, o'qitish usullarini o'rinli qo'llay olishiga bog'liqdir.

Yangi innovastiyalarning zarur shartlaridan biri ta'lim jarayonida o'qituvchining vazifasi bir qadar o'zgarib, o'quvchilarning mustaqil bilim olishlarini ta'minlovchi, yo'naltiruvchi, maslahat beruvchiga aylanishidan iboratdir. Ta'limning interfaol usullari o'quvchilarni faollashtirishga, ularni ishlatishga asoslangani uchun jiddiy tarbiyaviy mohiyat ham kasb etadi. Shu bois har bir o'quvchida: a) jamoa bilan ishlash ko'nikmasi; b) xushmuomalalik; v) xushfe'llik; g) ko'nikma olish; d) o'zgalar fikriga hurmat bilan munosabatda bo'lish; e) faollik; yo) mas'ullik; j) ishga ijodiy yondashish; z) o'z faoliyatining samarali bo'lishiga qiziqish; k) o'zini xolisona baholay olish kabi sifatlarni shakllantiradi.[9]

Interfaol usullar faqat ta'limiy hamkorlik qilish yoki faqat muammoni tadqiq etishga yoxud faqat mustaqil ishlashdangina iborat deb hisoblash noto'g'ri bo'ladi. Chunki har qanday usul bir vaqtning o'zida o'quvchini ham muammoning echimini topishga (tayyor ko'rsatmalar asosida ishlanganda ham o'quvchi to'g'ri xulosani tanlash asnosida fikr yuritadi, demakki, o'quvchi mavzu-muammo doirasida tanqidiy fikrlaydi), ham mustaqil xulosa chiqarishga (hamkorlik asosiga qurilgan o'quv jarayonida o'quvchi o'z fikrini asoslash va himoya qilish barobarida muayyan xulosaga keladi), ham hamkorlikda ishlashga yo'naltirishi mumkin.

Yangiinnovastionmetodlar o'quvchilarni mustaqil fikrlashga odatlantirishi, ularda o'zaro hamkorlik, o'zaro yordam tuyg'ularini shakllantirishi, faol muloqotga asoslanib ta'lim olishga imkon berishi, eng muhimi, badiiy matnni

mustaqil ravishda, o'z nuqtai nazaridan kelib chiqib qabul qilishga odatlantirishi bilan e'tiborga loyiqdir.

Innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish sharoitida barcha ishtirokchilarning o'zaro ta'siri, hamkorligi yordamiga ehtiyojni yuzaga keltiruvchi aniq natijaga erishishda vaqt va inson resurslaridan maqsadli foydalanishga asoslangan usullardir. Innovatsion pedagogik texnologiyalar 6-sinf materiklar va okeanlar tabiiy geografiya kursida mavzularini o'rgatishga bag'ishlangan mashg'ulotlar samaradorligini ta'minlashda ham beqiyos ahamiyat kasb etdi.

O'quvchilarga darsni tashkil qilish jarayonida interfaol usullar va innovatsion texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati katta. Geografik bilimlar manbai sifatida atlas, xarita, jadvallar, turli rasm va izohli manbalari bo'lgan darsliklar, diafilmlar, kinofilmlar, slaydlar kabi barcha vositalar ham o'z navbatida ta'lim olishga xizmat qiladi xizmat qiladi. Qo'shimcha manbalar sifatida geografik jurnallar, risolalar, ilmiy-ommabop adabiyotlar, radio va televidenie ma'lumotlaridan foydalanish tavsiya etildi. [10,12]

Geografiya talimi metodikasi bo'yicha olib boriladigan tadqiqotlarda pedagogik eksperiment keng qo'llaniladi. Bu metod kuzatish metodining mantiqiy davomidir.

Eksperiment uyushtirishning muhim shartlaridan yana biri, farazga (gipoteza) muvofiq o'quv uslubiy (o'quv matnlari, topshiriqlar, tarqatma, didaktik) materiallar yaratishdan iborat. Chunki bularsiz eksperiment uyushtirish qiyin. Eksperiment uyushtirishning eng keng tarqalgan usullaridan biri eksperiment va nazorat sinflar tashkil qilish hisoblanadi. Bunda eksperiment sinflarda o'quv materialli tadqiqotchi tavsiya etgan yangi metod va usullar yordamida uyushtiriladi. Nazorat sinflarda esa talim an'anaviy usulda olib boriladi. Har ikkala sinflarda o'quvchilar soni, ularning bilim saviyasi o'quvchilarning metodik mahorati deyarli bir xil bo'lishi kerak, aks xolda eksperimentdan ko'zlangan natijaga erishish qiyin bo'ladi. Eksperiment, nazariy g'oyalarining qanchalik

to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini isbotlashga yordam beruvchi jarayondir. Demak, eksperiment, shunday tadqiqot usuliki, unda pedagogik jarayonning obektiv konuniy alokalari tadqiq qilinadi. Barcha metodika fanlari qatori geografiya talim metodikasining kelajakdagi taraqqiyotini xam eksperimentlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.[27]

Biz tajribamizni pedagogik amaliyot davrida 2 ta sinfda o'tkazdik. Bunda biz ikkita sinfning o'quvchilarning o'qishi darsdagi faolligi bir xilligini etiborga oldik. Biz o'tkazmoqchi bo'lgan darslard. Tajriba natijalarimiz quyidagicha bo'ldi. Natijalarni quyidagicha tushunish mumkin. Yani darslarda interfaolusullarvainnovastiontexnologiyalardanfoydalanganda o'quvchilarning darsga qiziqishi va faolligi kuzatildi.

Geografiya darsida **“Afrika materigining geografik o'rni, o'rganilish tarixi” mavzusini o'rganishda innovatsion vapedagogiktexnologiyalardanfoydalanishbo'yicha o'tkazilgan tajriba sinov ishlari natijalari** 6“a” va 6“v” sinflarda o'tkazilgan eksperiment natijalari.

3.1-jadval

№	Sinflar	Baholar			
		“5” a'lo qoniqarsiz	“4” yaxshi	“3” o'rta	“2”
1.	6 “a” sinf (33 o'quvchi) Eksperiment sinf	13	11	9	-
2.	6 “v” sinf (32 o'quvchi) Nazorat sinf	8	14	7	3

Yuqoridagi berilgan ikkita sinfda ham o'tkazilgan tajriba-sinov ishlarimiz natijalari ayniqsa 6-sinf o'quvchilari judayam qiziqishiga sabab bo'ldi. Shuningdek darsda o'quvchilarning faolligi oshishiga sabab bo'ldi. Natijalarni tahlil qiladigan bo'lsak, 6-sinf o'quvchilarining nazorat sinfida ananaviy usulda o'tkazilgan darsda hatto ikkita “3” qoniqarsiz baho olgan o'quvchilar bo'ladi buni sabablarini o'rganib chiqqanimizda o'quvchining darsda etiborsiz bo'lishi va qiziqishining yo'qligi. Boshqa sinflarda ham xuddi shunday holat kuzatildi. O'quvchilar doimiy ananaviy usulda o'tkazilgan darslardan zerikib. Ularning faolligi pasayganini

sezdik. Bungingi kunda o'quvchilarning faolligini oshirishda materiklarni o'rgatishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish samarali ekanligiga ishonch hosil qilindi.

XULOSA

Ta'lim texnologiyalari va innovatsion pedagogik texnologiyaasosida dars tashkil etish-samaradorlik garovi. O'qitish jarayonida, maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir ta'lim texnologiyasi o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa, o'quv jarayonida o'quvchilar mustaqil fikrlab, ijodiy izlanib, tahlil etib, o'zlari xulosa qila olsalar, o'zlariga, guruhga, guruh esa ularga baho bera olsa, o'qituvchi esa ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, ana shu-o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi.

1.Maktab tabiiy geografiya o'quv dasturlarining tushuntirish xati va mazmunida geografiya talimi jarayonida maktab o'quvchilari faoliyatining xilma-xil turlarini tashkil etishga ko'proq etibor berish, Materiklar geografiyasini o'rganishda innovatsion va pedagogik pedagogik texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarni faollashtirishga, ularni ishlatishga asoslangani uchun jiddiy tarbiyaviy mohiyat ham kasb etadi. Turlixil sifatlarnishakllantirishgaxizmatqiladi.

2.Materiklarva okeanlar tabiiy geografiyasinio'rganishda innovatsion va pedagogik texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarni mustaqil xulosa chiqarishga, hamkorlikda ishlashga yo'naltiradi.

3. 6-sinf materiklar va okeanlar tabiiy geografiya kursi bo'yicha o'rganilgan innovastion pedagogik texnologiyalar asosida barcha materiklar dars ishlanmalarini yaratishga zamin tayyorlaydi.

4. Geografiya ta'lim jarayonini samaradorligini oshirish uchun doimiy ravishda innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida ishlangan dars ishlanmalar tanlovlari e'lon qilinib turishi maqsadga muvofiqdir

5. Geografiya ta'limi jarayonida kompetentsiyaviy ta'limdan foydalanish imkoniyatlari yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilgi iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor vazifalariga bag'ishlangan majlisidagi ma'ruzasi. – T.: Marifat, 2015 yil, 17 yanvar № 5 (8758).
2. Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008.
3. Каримов И.А. Бунёдкорлик йўлидан. – Т.: Ўзбекистон, 1996. 116 б.
4. Мирзиёев.Ш.М.“Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамыз” Тошкент “Ўзбекистон” 2017. Б 263.
5. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида” ги Қонун // Баркамол авлод-Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори.-Т.: Ўзбекистон, 1997.- 8б.
6. Ўзбекистон Республикасининг “Кадрлар тайёрлаш Миллий дастури” // Баркамол авлод - Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. Т.: Ўзбекистон, 1997. – 46-47 б.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi 187-sonli “Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar talimining davlat talim standartlarini tasdiqlash to'g'risida”gi qarori, Xalq talimi vazirligining 2017 yil 3 iyundagi 190-sonli buyrug'i.
8. Atlas. Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi.–Т.: 2014.
9. Альджанова И.Р. Бўлажак ўқитувчиларни тайёрлашда педагогик инновациялардан фойдаланиш.- Т.: “Fan va texnologiyalar” нашриёти,

2011-Б.3.

10. Gadoev K., Berdieva S. Jahongashta sayyoh – olimlar. –Т.: O‘zbekiston, 2012.
11. Голиш Л.В., Файзуллаев Д.М. Педагогик технологияларни лойиҳалаштириш ва режалаштириш-Т.: -Иқтисодиёт”-2011
12. Мавжутов Д. Географик топишмоқлар. – Т.: Мехнат, 2001
13. Мўминов О. Табиий география таълими методикаси. Т., Ўқитувчи-1976.
14. Максимов Н.А. Табиий географиядан қўлланма 6-синф. Т.: Ўқитувчи, 1976. - 32-35, 49-50б.
15. Мўминов О. Замонавий география дарсига қўйиладиган талаблар. (Ўқитувчилар учун методик қўлланма) - Т.: Ўқитувчи,- 1990. -29- 31
16. Krasilnikov P., Carre F., Montanarella L. Soil geography and geostatistics. Luxembourg, OFOPEC, 2008.
17. Niholas Klifford, Shaun French and Gill Valentine. Key Methods in Geography SAGE Publicftions Asia-Pacific Pte Ltd, 33 Pekin Street #02-, Far East Squar, Singahore, 2010.
18. Саидахмедов Н. Янги педагогик технология: таҳлил, таъриф, мулоҳазалар.-Т.: Ўқитувчи, 2000.- 42 б.
19. Султанова Н. География ўқитишда инновацион технологиялар. ТДПУ, -Т.: 2015.
20. A. Soatov, A. Abdulqosimov, M. Mirakmalov. Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi. –“O‘qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi –Toshkent- 2017.
22. Ишмухамедов Р., Абдукодиров., Пардаев А. Таълимда инновацион технологиялар (Таълим муассасалари педагог ўқитувчилари учун амалий тавсиялар).-Т.: “Истеъдод” жамғармаси, 2008.-180 б.
23. Ишмухамедов Р., Абдукодиров., Пардаев А. Тарбияда инновацион технологиялар (Таълим муассасалари педагог ўқитувчилари учун амалий тавсиялар).-Т.: “Истеъдод” жамғармаси, 2009.-160 б.
24. Ишмухамедов Р., Юлдашев М. Таълим ва тарбияда инновацион педагогик технологияси. Т. : Нихол.- 2013.

25. Tolipov O', Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. –T.: “Fan” nashriyoti. 2006. – 261 b.
26. Курбонниёзов Р. География ўқитиш методикаси. Урганч-2001.
27. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 1-12 jildlar. – T.: O‘zME, 2007.

Internet saytlari

28. www.ziynet.uz
29. www.google.uz